

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**YAPON TILIDA POLISEMIYA
(KO'P MA'NOLI SO'ZLAR)NING XUSUSIYATLARI**

Tarjima fakulteti yapon yo'nalishi
bitiruvchi kurs talabasi

Rasulov Abdumurodning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ILMIY RAHBAR: o'qit. Sh.S.Sobirova

Bitiruv malakaviy ish
Arab tili nazariyasi va amaliyoti
kafedrasida himoyaga tavsiya etildi
Bayonnoma “ ” may, 2015 y.

Kafedra mudiri: dots. Turobov A.M.

SAMARQAND-2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1BIRINCHI BOB YAPON TILINING	
RIVOJLANISHI.....	8
1.1 Yapon tili semasiologiyasi va uning o'rganilish xususiyatlari.....	13
1.2 Semalarning ma'no xususiyatiga ko'ra turlari.....	19
2IKKINCHI BOB YAPON TILIDA POLISEMIYA (KO'P	
MA'NOLI SO'ZLAR)NING MA'NO VA MAZMUN JIHATDAN	
O'ZIGA	
XOSLIGI.	26
2.1. Omonimiya va polisemiya.....	33
2.2 Sinonimiya va polisemiya.....	37
2.3 Antonimiya va polisemiya.....	41
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	46
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	50

KIRISH

*Ruh - shamchiroqqa, bilim - ana shu
shamchiroqdan taralayotgan yog'duga,
Allohning zakosi - moyga o'xshaydi.
Shamchiroq yonishdan to'xtamas ekan -
sen tiriksan. Agar u o'chsa - sen halok
bo'lasan.*

(Abu Ali Ibn Sino)

Mavzuning dolzarbligi. Har kim ham til o'rganishi, o'sha o'rgangan tilida ma'lum bir qolip asosida so'zlasha olishi, o'z fikrini o'sha o'rgangan tili asosida yetkazib bera olishi mumkindir, ammo tilni mukammal darajada o'rganish, har bir nuqta–yu, verguligacha, igna-yu ipigacha o'rganish, o'sha tilning haqiqiy mutahassisi bo'la olish juda mashaqqatli yo'llarni kechib o'tish bilan barobar.

Yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ham O'zbekistonning unib-o'sib kelayotgan, Vatanimizning kelajagi bo'lgan biz yosh avlodning bilim olishimiz, o'qib o'rganishimiz uchun barcha shart-sharoitlarni, maktab va oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar asosida ta'minlab berish uchun bor kuchini sarflab, biz yoshlar uchun barcha imkoniyatlar eshigini ochib berganlar.

Ilmiy ish uchun tanlangan mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda yapon tili o'rganuvchilari yapon tilining semantik va leksik xususiyatlari, ularning mazmuniy qoidalarini to'liq anglab yetishmagan. Ushbu tadqiqot ishim buning uchun muhim manbalardan biri sifatida xizmat qilishi shubhasizdir. Bir leksemaning bir necha ma'no ifodalashi esa yapon tili naqadar ko'pqirrali, murakkab va qiziqarli til ekanligidan dalolat beradi. Kelajak tilshunoslarimiz bu murakkab, ammo qiziqarli tilni puxta egallashi har birimiz uchun muhim vazifani oldimizga qo'yadi va buning uchun mashaqqat talab etadi.

Shunday ekan biz ham globallashuv jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyasi uchun o'z hissamizni qo'shib, yapon tilida ko'p ma'noli so'zlarning leksik, struktural, semantik xususiyatlarini o'rganib chiqdik. Ularga misollar keltirib, tahlil qildik.

Ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari. Polisemiya termini shunday mazmunga mos keladiki, uning belgilari soʻzning maʼnosini anglatadi. Semasiologiyaning bir turi boʻlgan polisemiyaning yaxshi tushunish uchun zamonaviy darslikdagi misollarga va matnga murojaat qilamiz. Bu soʻzlar mukammallashtirilgan ideogrammalar hisoblanadi.

Oʻzbek tilida yapon tili semasiologiyasini oʻrganishga yetrlicha qadam qoʻyilganicha yoʻq. Yapon tilida polisemiyaning qoʻllanish usullari, xususiyatlari oʻzbek talabalari oʻrtasida tadqiqot talab masalalaridan biri boʻlib kelmoqda. Ushbu ilmiy ishning oz boʻlsada yangiligi shundaki, bu ilmiy ish talabalar uchun muhim manbalardan biri sifatida xizmat qilishi shubhasizdir. Polisemantik soʻzlar bir necha maʼno ifodalashi esa yapon tili naqadar koʻpqirrali va qiziqarli til ekanligidan dalolat beradi. Yoshlarimiz yapon tilini puxta egallashi uchun yapon tilining kelib chiqish tarixi, qoʻllanilishi va leksik-semantik xususiyatlarini anglab yetishlari asosiy maqsadlarimizdan biridir.

Semasiologiyaning rivojlanib borishi natijasida u faqat soʻzlarni ifodalashga moslashtirilmay balki soʻzlarning boʻlaklarini ham anglatishi mumkin. Semasiologiyada qabul qilingan qoidadan yapon alifbolarini qoʻllash bir muncha farq qiladi. Bu holatlar, qoidaga binoan, matnga maʼno berish uchun ishlatiladi. Matnga semantik rang berganda soʻzning jozibadorligi yanada oshib, semantik buyoqdorlik beradi. Bu esa soʻzlovchi va tinglovchini oʻziga jalb etadi.¹

Shunday qilib, semasiologiyada stilistik elementlar paydo boʻlishi mumkin. Ushbu stilistik ranglar matnning, qolaversa gapning jilosiga jilo qoʻshadi. Leksik maʼno, polisemantik va monosemantik maʼnoga ega boʻlib, ularning tashqi koʻrinishida tasvirlanayotgan predmetning simvolik tarzda oʻxshashligini saqlab qolgan holda, soʻzlardagi stilistik buyoqdorlikni va semantik xususiyatini yapon tili oʻrganuvchilariga yetkazish asosiy vazifalarimizdan biridir.

¹ Clark J., Yellop. C. An introduction to lexicology and semasiology. Third edition. Blackwell publishing, 2007.

Tadqiqot predmeti va ob'yekti. Ma'lumki, semasiologiya ayrim lug'aviy unsurlar tushunchalarni bildirib, bu tushunchalarni esa faqat to'liq gaplar va ularning qo'shilmalari ifodalashi mumkin. Semasiologiya nafaqat alohida olingan leksik unsurlar — morfema va so'zlarning, balki grammatik unsurlar — so'z shakllari, grammatik morfemalarning ham semantikasini o'rganadi. Jahondagi barcha tillarni parallel o'rganishda til va tafakkur munosabati muammosini o'rganuvchi umumiy semasiologiya kerak bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, bir xil leksik-semantik birliklar yordamida xar xil tillarda so'zlashadigan insonlar muloqot qilishlari mumkin.

Ayrim olimlar semasiologiyani leksik unsurlarning ma'noviy o'zgarishlari (ma'no taraqqiyoti) haqidagi ta'limot bilan — ichki (affikssiz) so'z yasalishi bilan chegaralab qo'yadilar. Bu holatda semasiologiya, etimologiya singari, leksikologiya bilan chambarchas bog'liq bo'ladi va so'zlarning ko'chma ma'nolari, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari (polisemiya, monosemiya, omonimlar, sinonimlar, antonimlar, paronimlar) semasiologiyaning tadqiqot ob'yekti bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning metodlari. Til kishilar o'rtasida o'ziga xos aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan sistema bo'lib, uni jamiyatda o'ziga xos katta o'rni va ahamiyati bor. Tilning kelib chiqishi va taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan, uning madaniyatining yuqori saviyaga ko'tarilishi, shuningdek, siyosiy-huquqiy, estetik va shu kabi fikrlarni qayd qilish hamda keyingi davrga qoldirishga bo'lgan ehtiyojning o'sishi bilan bog'liq. Demak, til jamiyatning eng buyuk madaniy kashfiyotidan biri bo'lib, kishilik jamiyatining har tomonlama taraqqiyotida juda katta rol va o'ziga xos ahamiyati ega.

Tadqiqot ishini olib borish jarayonida yapon tili va yapon tilida ko'p ma'noli so'zlarning xususiyatlari to'g'risida bir qancha metodlardan foydalanish mumkin. Bulardan, suhbatlar, testlar, anketa-so'rovnoma va ostilografik tahlil usullaridan foydalanish mumkin. Biz tadqiqot ishimiz uchun anketa-so'rovnoma metodidan

foydalandik. Yapon tilini o'rganayotgan 20 ga yaqin talabalar orasida ushbu anketa-so'rovnomanini tarqatib chiqib, ularning fikrlari bilan o'rtoqlashdik. Talabalar fikriga ko'ra ular o'rganayotgan tilni har tomonlama chuqurroq o'rganish kelajaklari uchun muhim va zarur deb hisoblashadilar. Shuningdek, yetuk mutaxassis bo'lishlarida yapon yozuvi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ularning bunday fikrlari kelgusi ilmiy izlanishlarimiz uchun zamin bo'lib, bir debocha sifatida xizmat qilishiga ishonamiz.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Xalqlarning tili va yozuvini o'rganish katta nazariy va ilmiy ahamiyatga ega. Yapon tilini o'rganish Yaponiya adabiyotlari, yozma yodgorliklarni o'qish, amal qilgan tilning leksik-grammatik, leksik-semantik xususiyatini, Yaponiyaning tarixiy urf-odati va madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi.

Bitiruv malakaviy ishimizning nazariy ahamiyati shundaki, biz yapon tilidagi polisemantik so'zlarning nazariyasi, leksik jihatdan uning tuzilishini o'rgansak, semantik jihatdan esa ularning ma'nolari va gapdagi vazifalarini o'rganamiz. Bundan tashqari tarixda yapon yozuvining boshqa yozuv bilan almashtirilgani xususida ma'lumotlar keltirdik. Ushbu yozuv tarixning ma'lum bosqichining mahsuli va aloqa vositasi bo'lib, u keyingi davrning kommunikatsion jarayonlariga mos kelmaganligi tufayli Yaponiyada ieroglif asosida ikkita fonetik yozuv tizimi yaratildi. Katakana va hiragana alifbosi. Bulardan biri nizom asosida, ikkinchisi esa ierogliflarni tez yozish asosida shakllantirildi. Fonetik yozuvning yaratilishi natijasida yapon tilining grammatikasi, leksikasi va semantikasi taraqqiy topib, o'ziga xos xususiyatni kasb etdi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Biz tadqiqotimizning mavzusini yapon tilining bir turi bo'lgan ko'p ma'noli so'zlar (polisemiya) ga bag'ishladik. Uni so'z turkumlariga ko'ra xoslanishini ko'rib chiqamiz hamda nazariy fikrlarimizni misollar yordamida isbotlaymiz. Leksemalarning o'z shakli va ma'nosi bo'ladi. Leksema uchun ma'no birlamchidir. Ma'no ongda paydo bo'lgach, ifodalash zaruriyati bilan shakl tanlanadi. Leksema nutq tovushlari majmuidan iboratdir.

Hech vaqt avval nutq tovushlari majmui tanlab, so'ng ma'no izlanmaydi. Ayrim hollarda ma'no kishilik ongida paydo bo'lgani holda, ifodalash zaruriyati bo'lmagani uchun, unga shakl tanlanmagan va u leksema holida shakllanmagan holatlar ham kuzatiladi. Inson ongida biror narsa yoki hodisa, harakat va holat, belgi haqida tushuncha paydo bo'lib, keyin u ifodalagan tovush kompleksi tanlanadi. Shu tovush kompleksi leksema shakli bo'lgani holda, tushuncha o'sha leksemaning ma'nosi hisoblanadi. Ma'lum tovush kompleksida ifodalanmagan tushuncha hali ma'no ham emas, so'z ham emas.

Shunday qilib, tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, yapon tilida leksemalarning xususiyatlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lib, yapon tilini o'rganuvchi talabalarga bir muncha yengilliklar beradi.

Bundan tashqari talabalar uchun mustaqil ish va referat yozish jarayonida muhim manba bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Ushbu ilmiy ish mavzusini ma'ruza matniga maxsus mavzu sifatida kiritish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ish o'zida ishning maqsad va vazifalari, foydalanilgan usullar, ishning dolzarbligi haqida ma'lumot beruvchi kirish qismidan, sema turlari va yapon tilining kelib chiqish tarixi haqida umumiy ma'lumotlar beruvchi birinchi bobdan, yapon tili polisemiyasining xususiyatlari va ularning ma'no o'zgarishi haqida umumiy ma'lumot beruvchi ikkinchi bobdan, ish nihoyasida yuqoridagi bo'limlardan kelib chiqqan holda olib borilgan mulohazalarning yakuni sifatidagi xulosa va takliflar qismi va foydalanilgan adabiyotlardan tashkil topgan.

1 BIRINCHI BOB

YAPON TILINING RIVOJLANISHI

Hozirgi Yaponiya Tinch okeanining Janubiy-g'arbiy qismida, Sharqiy Osiyo sohillariga yaqin To'rtorolda joylashgan mamlakat. Bu orollarga odamlar taxminan miloddan avval 7-ming yillikdan boshlab kelib o'rnamshgan. Xitoy va Koreyaga nisbatan qilingan harbiy tajovuzlar, shuningdek bu mamlakatlar bilan savdo qilish oqibatida Yaponiyada ko'plab bilimlar va kasb-hunarlar ma'lum bo'lib, keng tarqala boshlagan. Yaponlar uchun ayniqsa taxminan V a. boshidan joriy etilgan yapon tilining yozuvi muhim yutuq bo'lgan. Shundan boshlab Yaponiyada yilnomalar tuzila boshlangan. Dastlabki solnomalar asosan xitoy tilida yozilgan. Asta-sekin yapon so'zlashuv tili ehtiyojlari uchun xitoy yozuvidan foydalanish usullari ishlab chiqilgan. Biroq yapon yozuvi uzil-kesil faqat XI asrda shakllangan.

Yapon imperatorlari endi xitoyliklar va koreyaliklardan olgan tasodifiy bilimlari bilan cheklanib qolishmagan. Yapon sumeragilari Xitoyga uning yutuqlarini o'rganish uchun maxsus vakillar yuborishgan, keyinroq esa hatto talabalarning butun guruhlarini jo'natishgan. Ular konfusiylilik maktablarida ta'lim olishi va o'z mamlakatlari baxt-saodati yo'lida ishlash uchun bilim va tajriba oqitirib Yaponiyaga qaytishlari kerak bo'lgan.

O'rta asrlarla Yaponiya madaniyati Xitoy ta'sirida rivojlangan. Hatto qadimgi yaponlarining Yamato davlatining poytaxti Nara shahri Xitoy poytaxti Chan'anga o'xshatib qurilgani fikrimizning dalili bo'lishi mumkin. Shaharda va uning atrofida ko'plab ziyoratgohlar, ibodatxonalar va monastirlar qurilgan. Mana shu shaharda yozuv san'ati va hunarmandchilik rivojlangan. Mana shu shaharda rasmiy yapon solnomalari yaratilib, ularda afsonaviy paytlardan boshlangan mamlakat tarixi batafsil bayon etilgan.

Biroq ilk o'rta asrlardayoq yangi yapon madaniyatining Xitoy madaniyatidan farqli tomonlari ko'zga tashlangan. Ma'lumki, Yaponiya—tog'li mamlakat. Bu yerda yashash va dehqonchilik qilish uchun yerlar oz. Har bir yer parchasiga yaponlar juda ko'p mehnat va kuch sarflaganlar, zero, aynan mana shu

bir parchi yerda ularning ajdodlari yashashgan va kelgusida esa avlodlari yashaydilar. Yaponlar tabiiy ofatlarga qaramay hech tinim bilmay o'zlarining kichik hayotiy hududlarini e'zozlab, uni obod qilishgan. Yapon orollarida aholi zich yashagan. Doimiy zichlikda yashash zaruriyati yaponlarni alohida ijtimoiy ahloq va qat'iy ierarxiya qoidalarini ishlab chiqishga majbur qilgan. Bundan tashqari, hayot kechirishning bu xususiyatlari yapon orollari aholisida, har bir kishida tarbiyalangan alohida ichki madaniyatni vujudga kelishiga olib kelgan. Yaponlarga bolalikdan intizomga rioya qilish, fikrni bir erga jamlash va mehnatsevar bo'lish uqtirib kelingan. Bu sifatlar yapon xalqiga eng og'ir vaqtlarda ham omon qolish va yoziv san'ati va madaniyatning ajoyib durdonalarini yaratishga yordam bergan. VIII asrda davlat poytaxti Xeyanga ko'chirilgan. Bu—Xeyan shahri (hozirgi Kiotto) berib, yaponlar uni "Tinchlik va osoyishtalik poytaxti" deb atashgan Yaponiyaning ikki markaziy shaharlari: Nara va Xeyanda o'sha paytdagi yapon sivilizasiyasi yutuqlarining katta qismi to'plangandi. Aynan shu markazlarda risolalik va haykaltaroshlik, she'riyat va husnixat, musiqa va raqs ijrosi rivojlangan. Bir paytlar Xitoyda o'zlashtirilgan bu san'atlarning barchasi IX asr oxiriga kelib sof yapon xususiyatlariga ega bo'lgan va nazokatli aristokraktlar jamiyatining timsoliga aylangan. Bu jamiyat asosan aslzoda va badavlat urug'lardan bo'lgan atigi birnecha ming kishidan iborat edi. Ularning asosiy qiziqishlari xitoyliklardan nusxa olgan saroy marosimi va samurayning sha'n-shavkat kodeksi—busido bo'lgan. Bu kishilar o'zlarining unvonlari bilan juda g'ururlanishgan va poytaxtdan tashqariga chiqish uchun madaniy sahroga surgun qilish bilan barobar edi. Yangi yozuv san'atining sevimli mavzusi tabiat manzaralari (peyzajlar)ni ta'riflash bo'lgan. Yaponlarning qadimgi dini—sintoizm—tabiatni ilohiylashtirishga asoslanganini yodga olsak, bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Yaponlarni tabiatning tabiiy go'zallikdan zavq olishlari barcha narsada feodallar bog' va chorbog'lari va imperatorlar saroylarini bunyod etishda, tabiat manzaralarini chizishda va xatto mashhur choy marosimida ham aks etgan.

IX asrgacha Sharq xalqlarining deyarli barchasi o'z yozuvidan foydalanib keldi va ushbu asrning boshiga kelib xoh Yaponiyada, xoh undan tashqarida bo'lsin xalqlarning ilmiy-ma'naviy taraqqiyotda orqada qolishini bartaraf berish uchun bu yozuvni boshqa tipdagi yozuvlar bilan almashtirish zarurligi g'oyasi faol tashviq etildi, asta-sekin bu g'oya amaliy harakatga aylandi¹.

Shu paytgacha o'z yozuvlarini bir marta (masalan, Turkiya) va bir necha marta (Vietnam, Mongoliya) o'zgartirgan mamlakatlar yozuv islohotiga kirisishganlarida nimani maqsad qilib qo'yishgan edi va bu maqsadlarga erishildimi, ana shu masalalarga e'tibor qaratish lozim. Yaponiyada IX asrning birinci yarmida boshlangan til-yozuv-imlo islohotlaridan kutilgan pirovard maqsad – mamlakatning G'arb siyosiy-iqtisodiy, huquqiy va madaniy taraqqiyot modellarini tezroq o'zlashtirish edi. Yapon yozuv islohotining tashabbuskori Minamoto Takeshi edi. Imperiyaning urush jarayonidagi muvaffaqiyatsizligining sof harbiy sabablaridan biri bu mamlakat qo'shinlarida G'arb armiyalaridagi kabi axborot va buyruqlarni tez, yashirin yetkazuvchi tizimning (telex, teletayp) mavjud emasligida hamda bu yetishmovchilikning kaliti amaldagi alifbosida deb hisoblagan. Bo'lg'usi imperatorda hali hokimiyatga erishmasdanoq yapon yozuvini almashtirish g'oyasi mavjud bo'lgan, deb yozadi rus tadqiqotchi V. Alekseev.

VIII – asr va IX asrning boshlarida yaponiyada ieroglif asosida ikkita fonetik yozuv tizimi yaratildi. Bulardan biri nizom asosida, ikkinchisi esa ierogliflarni tez yozish asosida shakllantirildi. Fonetik yozuvning yaratilishiga ikkita holat sabab bo'ldi.²

Birinchidan, har bir xitoy ieroglifi bo'g'inni bildirib, ko'p hollarda so'zga teng bo'lib, uning mazmunini bildiradi va fonetik tarzda qo'llaniladi.

Ikkinchidan, yapon yozuvining sanskript yozuvidan tashkil topganligi bilan tanishish ekanligi fonetik yozuvni yaratish imkoniyatini berdi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tez yozuv shaklidagi ierogliflar guruhini tashqi ko'rinishi

¹. Sherov S. Yapon tili tarixi va madaniyati. Toshkent-2005.

² 小口靖男「中アジアの歴史」、東京—2011年 132 p

yetarli darajada qisqartirilib sillabik funksiyani bajarishni ta'minladilar. Bu guruh belgilarni hiragana deb atadilar. Ular mustaqil holda va ierogliflar bilan birgalikda ayrim so'zlarni, fe'llarni va sifatlarni belgilashda foydalaniladi. Deyarli o'sha vaqtda katakana yozuvining bo'g'inli tizimi qabul qilindi. Uning belgilari uchta xususiyatdan iborat bo'lib, ular natijasida ierogliflarni nizom shaklini olishga muyassar bo'lindi. Katakanani ishlatishi xuddi xiragananiki kabi edi. Har bir alifbo 46 sillabikadan iborat. Sanskript obrazi orqali o'ylab topilgan va ishlab chiqilgan tartib bo'yicha alifbolar tarqatildi va harflar talaffuz qilindi. U gojyu:on-ju nomini oldi (" 50 ta belgidan iborat jadval"): 10ta ustun har biri 5ta belgidan iborat. Jadvalni to'liq to'ldirish uchun ayrim belgilar ikki marta takrorlangan.

Til islohotini amalga oshirishga kirishgan Yaponiyaning bu reformalardan maqsadi o'lkani G'arb modellarida taraqqiy ettirish hamda rivojlanishda G'arb o'lkalariga yetib olishdan iborat bo'lgan. Mongoliyaning kiril yozuviga, Vietnamning lotin alfavitiga o'tishida ham shunga o'xshash motivatsiyalar sezilarli rol o'ynagan.

Bugungi kunda ijtimoiy va madaniy taraqqiyotda bu o'lkalar o'zlari yozuvini qabul qilgan (yozuv o'ziga model qilib qo'yilgan o'lka yoki jamiyatlardan olinadi) mamlakatlar bilan bir safda. Yaponiya O'rta va Yaqin Sharq mintaqasida boshqalarga nisbatan rivojlangan va g'arblashgan mamlakat hisoblansa-da, u siyosiy taraqqiyotda yetakchi G'arb o'lkalaridan hali biroz orqada. Mo'g'uliston ham Rossiya kabi siyosiy taraqqiyotga erisha olmadi. Vietnamning yutuqlari haqida ham hali eshitganimiz yo'q. Bir qarashda yozuv bevosita aloqador bo'lgan yangi texnologiyalar yaratishda har uch o'lka ham G'arb dunyosi yaratgan texnologiyani o'zlashtiruvchisi va iste'molchisi maqomidalar. Bugungi kunda esa tovar ishlab chiqarish emas, ayni zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarish / ishlab chiqarmaslik rivojlanganlikning jiddiy ko'rsatkichidir.

Qiyos uchun G'arb dunyosidan yozuvni emas, faqatgina texnologiyalarni o'zlashtirishni maqsad qilib qo'ygan va vaqti kelib bu maqsadlariga erishgan Yaponiya, Koreya kabi o'lkalarning taraqqiyotini olsak, G'arb iqtisodiy va siyosiy modellarini o'zlashtirish bilan yozuv almashtirish o'rtasida bevosita bog'liqlik

yo'qligini ko'rish mumkin. Demak, yozuvni o'zgartirish iqtisodiy va texnologik taraqqiyotni tezlashtiradi, deb dadil aytish qiyin.

20-asrning siyosiy va iqtisodiy voqealari bilan bog'liq ekanligi bu savolga biryoqlama javob qaytarishni imkonsiz qilib qo'yadi. Yozuvni almashtirish barcha hollarda ham u yoki bu xalqning inon-ixtiyori bilan emas yuz beravermaydi va aksincha, hamisha ham "sivilizator" xalqning bosimi ostida yuz bermaydi. Masalan, Yaponiyadagi yozuv islohoti tashqi kuchlarning bosimi ostida yuz bermadi, u yapon jamiyatida 9-asrdan beri davom etib kelayotgan g'arblashish (youfu) jarayonlarining mantiqiy yakunlaridan biri sifatida amalga oshdi. Ammo G'arb namunasi, g'arblashish ishtiyoqi bu mamlakat ziyolilarini ikki yuz yildan beri hayajonlantirib kelgan edi, ieroglif yozuvini hiragana va katakana yozuviga almashtirish "yaponlar"ning ham rejasida bo'lgan edi. Yaponlar hiragana va katakana o'tishni e'lon qilganida xalq buni bamaylaxotir kutib oldi, chunki jamiyat bu qadamni g'arblashish jarayonining uzviy qismi deb bilar edi. Demoqchimizki, G'arbning jozibador namunasi bu o'rinda yozuvni almashtirishga bosim o'tkazgan edi.

Mo'g'ulistonning kiril alfavitiga o'tishida esa revolyutsion Rossiyaning ta'siri kuchli edi. Stalincha repressiv tizimni, beshyillik rejalar va kollektivlashtirish sanoatlashtirish dasturlarini SSSRdan nusxa ko'chirgan Choybalsan rejimi buning mantiqiy yakuni sifatida kiril alfavitini (1940) qabul qilgan edi.

Yozuv almashtirishning ikkinchi usulini shartli ravishda "mustamlaka usuli" deyish mumkin. Bunda "katta og'alik" rolini o'z ustiga olgan xalqning yozuvi oshkora yoki zimdan bo'lgan bosim natijasida qabul qilinadi. Sobiq SSSRda 1940 yilda amalga oshirilgan barcha xalqlarni kiril yozuviga o'tkazish siyosati ana shunday yo'l bilan hayotga joriy etildi. Ammo, bu xususda na VKP (b)ning, na Sovet hukumatining birorta maxsus qarori yo'q. Stalin rejimi, masalaning nozikligini (yozuv milliy til, madaniyat, din bilan bevosita bog'liq) hisobga olib va sobiq SSSRdagi xalqlarda antipatiya uyg'otmaslikka harakat qilib, bu ishni zimdan qilgan edi, sobiq sovet respublikalari kompartiyalariga o'tkazilgan bosim natijasida ular o'z respublikalarida kiril yozuviga "ixtiyoriy o'tish" xususida

qarorlar qabul qilinishini tashkil etdilar va shu bilan ish bitdi. Bunday harakatlarning zahirida hamisha ham olijanob maqsadlar, yaxshi niyatlar yotgani e'lon qilinadi. Masalan, sobiq SSSRda 1929-yilgi yozuv islohoti sotsializm qurilishini jadallashtirish, madaniy revolutsiyani amalga oshirish va pirovard natijada jamiyatning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotini tezlashtirish kabi "xalq manfaatini ko'zlagan" sabablarga ko'ra o'tkazilishi e'lon qilingan edi.

Amerika okkupatsion ma'murlari 1947-yilda Yaponiyada lotin alfavitini joriy qilmoqchi bo'lganlarida ham yapon jamiyatini isloh qilish ehtiyojlarini sabab qilib ko'rsatgan edilar. Mao Tse Dun rejiminig 1950-yillarda uyg'urlar va ba'zi Tibet xalqlariga lotin yozuvini joriy etishga intilishini ham shunday izohlash mumkin. Ammo har qanday yaxshi niyatlar ham yozuvni almashtirishga sabab bo'lavermaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirish hamda xalq turmush darajasini ko'tarish faqatgina yozuv islohoti bilan emas, balki liberal iqtisodiyot va jamiyatning barcha unsurlarini milliy realliklarga muvaffaqiyatli moslashtirilganida amalga oshishi Yaponiya, Koreya, Xitoy misollarida ko'rinib turibdi.

Shuning bilan yapon tilining rivojlanishi va yozuv tizimining shakllanish jarayoni to'xtamadi. Haqiqatan VIII-IX asrlarda yapon yozuv tizimi xitoy ieroglifikasi asosida shakllandi. Ammo, keyingi davrlarda yaponlar boshqa tillar bilan tanishdilar va ularning asosida o'zlarining tillarini grammatik, semantik va leksik jihatdan mukammallashtirishga va takrorlanmas darajaga yetishishga erishdilar.

1.1 Yapon tili semasiologiyasi va uning o'rganilish xususiyatlari

Semasiologiya (yun. semasia — ma'no, mazmun va ... logiya) — 1) tilning , til birliklarining hissiy idrok qilinadigan tomoniga, tovush, akustik yoki grafik ko'rinishiga qarshi qo'yiladigan ma'noviy tomonini o'rganadigan tilshunoslik bo'limidir. Semantika — 1) til yoki uning bironbir birligi (so'z, so'zning grammatik shakli, frazeologizm, so'z birikmasi, gap) orqali ifodalanadigan butun

mazmun, ma'no, axborot; 2) turli til birliklarining ma'noviy tomonini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limidir. Semasiologiya ayrim lug'aviy unsurlar tushunchalarni bildiradi, bu tushunchalarni esa faqat to'liq gaplar va ularning qo'shilmalari ifodalashi mumkin. Semasiologiya nafaqat alohida olingan leksik unsurlar — morfema va so'zlarning, balki grammatik unsurlar — so'z shakllari, grammatik morfemalarning ham semantikasini o'rganadi. Jahondagi barcha tillarni parallel o'rganishda til va tafakkur munosabati muammosini o'rganuvchi umumiy semasiologiya kerak bo'ladi; 2) leksik unsurlar — morfema va so'zlarning semantik mazmuni haqidagi fan, shu ma'noda, asosan, leksikologiya bilan muvofiq keladi. Ayrim olimlar semasiologiyani leksik unsurlarning ma'noviy o'zgarishlari (ma'no taraqqiyoti) haqidagi ta'limot bilan — ichki (affikssiz) so'z yasalishi bilan chegaralab qo'yadilar. Bu holatda semasiologiya, etimologiya singari, leksikologiya bilan chambarchas bog'liq bo'ladi va so'zlarning ko'chma ma'nolari, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari (omonimlar, sinonimlar, antonimlar, paronimlar) semasiologiyani tadqiqot ob'yekti bo'lib hisoblanadi.¹

Binobarin, semasiologiyani o'rganish ob'yekti ham, asosan, to'liq, mustaqil ma'noli so'zlar va gaplarning ma'nolar tizimidir. Semasiologiya fan sifatida 19-asrning 2-yarmidan rivojlana boshlagan va hozirgacha bir-biridan sifat jihatidan farqlanuvchi bir necha bosqichni o'tgan.

Yapon tilida 石 (tosh) so'zi yoki ストーン katakanasining semantik ma'nolarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, qo'yidagicha mazmun kasb etadi: サイレントストーン /jim harsang/, 押し石 [おいしい] /tosh bosmoq/, 一挙両全 [いっきよりょうぜん] /bir tosh bilan ikki qushni urmoq/, 一石二鳥 [いっせきにちょう] /bir o'q bilan ikki quyinni urmoq/, 一木一草 [いちぼくいっそう] /bir daraxtning shoxchasi/, 一目置く [いちもくおく] birovga bir parcha bilim berish,

¹ Abduazizov A.A. O'zbek tili leksikologiyasi va semasiologiyasi. Grammatika. Toshkent, Universitet, 2000.

臼 [うす] maydalagich, 温石 [おんじゃく] qizdirilgan tosh, 火災流 [かさいり
 ゆう] qumli to'fon, 火成岩 [かせいがん] vulqon, 怪石 [かいせき] qoya, 開基
 [かいき] ibodatxonaning kashf etilishi, 階梯 [かいてい] qo'riqchi, 核果 [かつ
 か] mevali tosh, 割り栗 [わりぐり] singan tosh, 擬宝珠 [ぎぼうし] toshli gul,
 旧石器時代 [きゅうせっきじだい] paleolit davri, 玉石 [ぎょくせき] bo'g'doy,
 金石 [きんせき] minerallar, 金石文 [きんせきぶん] naqsh, 空っ穴 [からっけ
 つ] uyning vayron bo'lishi, 鶏群一鶴 [けいぐんいっかく] toshlar orasidagi
 olmos, 血も涙もない [ちもなみだもない] tosh yurak, 玄武岩 [げんぶがん]
 tuzsiz, 厚臼 [あつうす] temir qullar, 狛犬 [こまいぬ] ibodatxonaning qo'riqchi
 itlari, 鹿威し [ししおどし] qushlarni chuchituvchi tosh asbob, 手段を尽くす
 [しゅだんをつくす] palaxmon toshi, 焼け石 [やけいし] pishgan tos, 石材商
 [せきざいしょう] qat'iy qaror, 石摺り [いしずり] toshga o'yilgan naqsh, 石敷
 [いしじき] toshbo'ron va boshqalar.

Yuqorida berilgan misollardan ma'lumki, yapon tilida bir so'zning leksik,
 grammatik, semantik va frazeologik ma'nolari turlicha bo'lib, bu nafaqat yapon
 tilining boy leksikasidan, balki uning naqadar ko'pqirrali ekanligidan dalolat
 beradi.

So'z tilining eng muhim nominativ birliklaridir, chunki u borliqdagi
 narsabuyumlarni, predmet sifatida tasavvur qilinadigan mavhum tushunchalarni,
 harakat-holatni, rang-tus, maza-ta'm, hajm-miqdor, xislat kabi belgi-xususiyatlarni
 nomlaydi: 木—*daraxt* (predmet nomi), 脳—*ong* (mavhum tushuncha nomi), 働く
ishlamoq (harakat nomi), 白い—*oq* (rang-tus nomi), おいしい—*shirin* (maza-
 ta'm nomi), 大きい—*katta* (hajm nomi), 五—*besh* (miqdor nomi) kabi. Tilning
 lug'at boyligidagi bunday so'zlar leksik birliklar sanaladi.

Tilda nomlash xususiyatiga ega bo'lmagan, binobarin, leksik birlik
 sanalmaydigan so'zlar ham bor, ular faqat grammatik yoki modal ma'nolarni

ifodalaydi, shunga ko'ra grammatik so'zlar yoki morfema-so'zlar hisoblanadi: yordamchi so'zlar, modal so'zlar, taqlidiy so'zlar, undovlar, olmoshlar shular jumlasidandir. Bo'lar tilshunoslikda ifodalovchi so'zlar (undovlar, modal so'zlar, yuklamalar), ko'rsatuvchi so'zlar (bog'lovchilar, ko'makchilar), olmoshlovchi so'zlar (olmoshlar) va atovchi so'zlar (atoqli otlarning ma'lum turlari) kabi guruhlarga ajratiladi. Leksik mazmunli so'zlar leksikologiyada, grammatik mazmunli so'zlar esa grammatikada (so'z turkumlari bilan bog'lab) o'rganiladi.

Tilshunoslikda leksik mazmunli so'zlarning strukturasi har xil ta'riflanmoqda: Ayrim manbalarda leksik mazmunli so'zlarning ifoda plani (tovushlardan tarkib topgan moddiy tomoni) *leksema* deb, mazmun plani (ifodalanuvchisi) esa *semema* deb ta'riflanadi. Demak, leksema va semema leksik birlikning (so'zning) o'zaro aloqa bo'lgan ikki tomoni ekanligi ta'kidlanadi. Boshqa manbalarda esa leksema so'zning ifoda planigina emas, balki uning ifoda va mazmun planlari birligidan iborat yaxlit butunlik ekanligini ta'kidlanadi. Bu butunlik nominative funktsiyadagi so'z yoki so'z birikmasi shaklida bo'ladi. U onomasiologiyada tilning lug'at tarkibidagi bir komponent (*vokabula*) sifatida, semasiologiyada esa malum ma'nolar tarkibidan iborat birlik (*semantema*) sifatida o'rganiladi.

Yapon tilshunosligida leksemaning ifoda va mazmun planlari birligidan iborat bir butun leksik birlik sifatida qaralishi keng tarqalgan, bunda uning ifoda plani (tovush tomoni) *nomema*, termini bilan, mazmun plani esa *semema* atamasi bilan nomlanmoqda. Leksik ma'noga tayangan holda leksemalarning Grammatik ma'nolarini belgilaydigan, shu asosda leksemalarning so'z turkumlariga uyushishini ta'minlaydigan semalar.

Leksemaning semantik tarkibi leksik ma'no, qo'shimcha ottenkalar (ma'no qirralari, uslubiy semalar) va turkumlik semalarini o'z ichiga oladi. Leksik ma'no leksemaning nimanidir nomlashi (atashi), anglatishi va ifodalashidir. U quyidagi uch hodisa o'rtasidagi bog'lanishdan tarkib topadi:

- a) fonetik so'z (leksemaning fonetik qobig'i, shakli);
- b) fonetik so'z tomonidan nomlangan predmet, hodisa, tushuncha (denotat,

referent);

v) fonetik soʻz tomonidan ifodalangan maʼno (signifikat, u inson ongida denotot haqida shakllangan maʼnodir).¹

Demak, fonetik soʻz predmetni, denototni ataydi (denotativ maʼno), fonetik soʻz inson ongidagi signifikatni ifodalaydi (signifikativ maʼno). Ana shu uchta birlik oʻrtasidagi bogʻlanishdan yuzaga kelgan semantik birlik leksik maʼno sanaladi. Buni quyidagi semantik uchburchak shaklida tasvirlash mumkin: fonetik soʻz mashina Leksik maʼnoning yana bir muhim belgisi shuki, u leksemaning til sistemasidagi boshqa soʻzlar bilan turli darajada aloqaga kirisha olish imkoniyatini (valentligini) ham belgilaydi. Masalan, パン — non va 食べる — yemoq leksemalarining maʼnolari shu ikki soʻzning nutqda birikishini taqozo qiladi (パンを食べる "non yemoq" kabi), ammo パン — non va 飲む — ichmoq leksemalari oʻzaro birika olmaydi, chunki bu ikkala leksemaning maʼnolari, semik tarkibi bunga yoʻl qoʻymaydi.

Leksek maʼno leksemaning ifoda plani (fonetik soʻz) bilan tarixan bogʻlangandir, ammo birdan maʼno va tovushlar oʻrtasida tabiiy bogʻlanish bor degan xulosa chiqmasligi kerak, chunki tovush — maʼnosiz birlik, fizik-akustik hodisa; maʼno esa mavhum umumlashmadir. Tovushlar bilan maʼno oʻrtasida tabiiy bogʻlanma boʻlganda edi, bir maʼno tilda bitta soʻz bilan ifodalanardi, aslida esa tilda bir maʼnoning bir necha soʻz bilan nomlanish hollari ham uchraydi: 笑い *kulgi* va 落語 — *xanda*, 騙す — *yolgʻonchi* va ずるい — *aldamchi*, バケツ — *chelak* va *satil* kabi sinonimlarning birligi buning isbotidir.

Demak, leksik maʼno fonetik birliklardan tarkib topgan fonetik soʻzga (yoki bir necha fonetik soʻzga) shu til egasi boʻlgan jamoa tomonidan biriktirilgan boʻladi. Buni quyidagicha tavsiflash mumkin: borliqdagi narsa-hodisalar sezgi aʼzolarimiz orqali ongimizga taʼsir qiladi,, natijada inson ongida shu narsa-hodisalarning

¹ Clark J., Yellop. C. An introduction to lexicology and semaciology. Third edition. Blackwell publishing, 2007.

in'ikosi (obrazi) qoladi, unga nom tarzida biriktirilgan so'zning shakli ham ongimizda o'z aksini topadi. Shunday qilib bu ikki hodisapredmet in'ikosi va so'z shakli obrazi o'rtasida doimiy, mustahkam aloqa bog'lanib, bir butun birlik yuzaga keladi: har safar narsa-hodisani ko'rganda yoki sezganda ongimizda shu narsaning in'ikosi bilan birga, uning nomi bo'lgan so'zning qiyofasi ham gavdalanadi yoki, aksincha, so'zni eshitganda shu so'z qiyofasi bilan birga u atagan narsa-hodisaning in'ikosi, obrazi tiklanadi. Ana shu ikki hodisa o'rtasidagi doimiy aloqa, bog'lanish leksik ma'no bo'ladi. So'z va uning ma'nosi birgalikda inson ongida tushunchani shakllantiradi. Demak, so'zni tushunchaning tildagi belgisi (znak ponyatiya) deyish mumkin.

Biroq so'zning ma'nosi bilan tushuncha bitta narsa emas. Ma'no tushunchaning shakllanishida ishtirok etadi, unga poydevor bo'lib xizmat qiladi, ammo so'zning tarkibiy qismi bo'lganligidan til birligi sanaladi, tushuncha esa, garchi so'z va uning ma'nosi bilan aloqa bo'lsa-da, inson tafakkurining mahsuli sifatida logik kategoriya hisoblanadi. Masalan, shox-shabbali, ko'p yillik o'simlik haqidagi tushuncha barcha millat vakillari ongida bir xil bo'lsa-da, uning shakllanishida poydevor vazifasini bajargan so'zlar (nomlar) har xildir: yapon tilida 木, o'zbek tilida *daraxt*, rus tilida *derevo*, nemis tilida *der*. Shuning uchun 木—*daraxt* so'zining ma'nosini nemis va rus bilmaydi, yapon esa *der Baum* va *derevo* so'zlarining ma'nolarini anglay olmaydi (agar shu tillardan xabari bo'lmasa), bunday holat ulardan birining (tushunchaning) logik kategoriya ekanligidan, ikkinchisining (so'z va ma'noning) esa lingvistik kategoriya ekanligidan kelib chiqadi, so'z va uning ma'nolari qaysi tilga mansub bo'lsa, o'sha til sistemasi ichida qaraladi, shuning uchun bir tushuncha nomi turli tillarda turlicha bo'lishi bilan birga, ularning ma'nolarida anchagina tafovutlar ham uchraydi: 頭(yap.), *bosh* (o'zb.) va *golova* (rus.) so'zlarining asosiy (to'Hri) ma'nolari o'zaro tengdir, ammo yapon tilidagi 頭 - *bosh* so'zining ko'chma ma'nolari – 月の頭—«oyning boshi», 年の頭—«yilning boshi» birikmalarida reallashgan semalari ruscha *golova* so'zining semantik tarkibida mavjud emas.

1.2 Semalarning ma'no xususiyatiga

ko'ra turlari

Qo'shimcha ottenkalar (ma'no qirralari) leksemaning semantik tarkibidagi ikkinchi hodisadir. Ular leksik ma'noga ustama sema tarzida birlashtirilgan bo'ladi.

Turkumlik semalari – leksemaning mazmun planidagi uchinchi komponent. Bunday semalar leksik ma'noga tayangan holda leksemalarning grammatik ma'nolarini belgilaydi, shu asosda leksemalarning leksik-grammatik guruhlanishi – so'z turkumlariga uyushishi ta'minlanadi. Qiyos qiling: ノート – **daftar** – «predmetning bir turi» (leksik ma'no), 本 – **kitob** – «predmetning boshqa bir turi» (leksik ma'no), 書く – **yozmoq** – «harakatning bir turi» (leksik ma'no), 歩く – **yurmoq** – «harakatning boshqa bir turi» (leksik ma'no). Bu ma'nolar yuqorida keltirilgan har bir leksemaning o'zinikidir: 本 – **kitob** leksemasi «daftar»ni, ノート – **daftar** leksemasi «kitob»ni anglatmaydi; shuningdek, 書く – **yozmoq** leksemasi «yurmoq»ni, 歩く – **yurmoq** leksemasi esa «yozmoq»ni ifodalamaydi. Biroq ノート – **daftar** va 本 – **kitob** leksemalarining ikkalasida «predmetlik» semasi, 書く – **yozmoq** va 歩く – **yurmoq** leksemalarining ikkalasida esa «harakat» semasi ham borki, ular ノート – **daftar** va 本 – **kitob** leksemalarini ot turkumiga, 書く – **yozmoq** va 歩く – **yurmoq** leksemalarini esa fe'l turkumiga birlashtiradi. Har bir so'z turkumining ichki kategoriyalariga xos ma'nolar – otlarda egalik, kelishik, birlik, ko'plik; fe'llardagi shaxs-son, zamon, mayl; sifatlardagi daraja ham turkumlik semalariga asoslanadi.¹

Demak, leksik ma'noda xususiylik, individuallik, grammatik ma'noda esa umumiylik ustun turadi. Bunday tafovutlanish leksemaning mazmun mundarijasidagi leksik ma'no semalari bilan turkumlik semalari o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadi. Leksik ma'no leksemaning mazmun planidagi

¹ 郁子乙津か「この漢字を英語で言えますか？」 Vol.2, 講談社パワーイングリッシュ、日本—2009年

yaxlit bir semantik butunlik bo'lsada, keyingi vaqtlarda bu butunlik tarkibida ma'lum ma'no qismlari – *semalar* borligi aniqlanmoqda. masalan, 木—**daraxt** leksemasining leksik ma'nosida quyidagi semalar borligini ko'ramiz: 1) «predmet», 2) «o'simlik», 3) «ko'p yillik o'simlik», 4) «erda o'suvchi», 5) «yog'ochlashgan tanali», 6) «ildizli», 7) «shox-shabbali», 8) «bargli». Bu semalar birlashib, 木—**daraxt** leksemasining leksik ma'nosini shakllantiradi. Leksik ma'noning semasiologiyada *semema* deyilishi ham shundan.

Semalar ma'no xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Atash semalari (denotativ semalar).
2. Ifoda, tasvir, qo'shimcha ma'no semalari (konnotativ semalar)
3. Vazifa semalari (funktSIONal semalar)

Atash semalari (denotativ semalar) ot, sifat, son, fe'l turkumidagi barcha leksemalarning leksik ma'nolarida bor. Shuning uchun ular *ideografik semalar* deb ham ataladi.

Ifoda semalari semema tarkibidagi uslubiy ma'no qirralaridir. Ular leksemalarning atashdan, nomlashdan tashqari, shaxsiy munosabatlarni ifodalashiga yoxud shu leksemalarning qo'llanishi doirasini belgilashga xizmat qiladi. Masalan, *buyum* va *matog'* leksemalari «tirikchilik ro'zg'orda qo'llanadigan mol» ma'nosiga ega, ammo *matog'* so'zida bu leksik ma'no salbiy bo'yoq bilan qoplangan: «Jon ota, *matog'larini* olib borib bering, agar meni qizim desangiz, olib borib bering...» (X.Saitov.).

Ba'zan semantik tarkibida qo'shimcha ma'no qirrasi bo'lmagan leksemalar o'zi qo'llangan kontekst yoki nutqiy muhit talabi bilan uslubiy semali leksemaga aylanadi. Bu hodisa leksemaning o'ziga xos bo'lmagan kontekstda qo'llanishi tufayli sodir bo'ladi. Masalan, **burun** va **tumshuq** so'zlarida har birining o'z konteksti bor: *burun* leksemasi asosan odamga nisbatan, *tumshuq* leksemasi esa hayvon va parrandalarga nisbatan qo'llanadi. Qiyos qiling: 1) *SHarofatning yupqa lablari ko'karib pirpiradi, burni oqarib, kataklari kerildi.* (A.G'ahhor); 2) *Laylakning bo'yi novcha, tumshui bor tarnovcha. Lapanglaydi uchganda, Uyasidan ko'chganda.* (Uyg'un).

Keltirilgan misollarning ikkalasida **burun** va **tumshuq** soʻzlari oʻz kontekstida qoʻllangan, shu bois ulardan qoʻshimcha maʼno qirralari, uslubiy bogʻ ottenkalari ifodalanmagan. Yana misol: *U bir koʻngli borib muttaham qozining tumshgʻiga tushirgisi yo iflos basharasiga tupurgisi keldi.* (M. Ismoiliiy.) Bu gapda tumshuq soʻzi oʻziga xos boʻlmagan kontekstda – odamga nisbatan qoʻllangan, natijada unda odamga (qoziga) nisbatan hurmatsizlik, nafrat munosabatlari ifodalanagan. oʻzbek tilida uslubiy bogʻning morfemalar yordamida ifodalanishi keng tarqalgan: *oyioyijon*, *tili-tillari*, *dadam-dadamlar*, *uka-ukaginam* kabi. Masalan: 1) Mushfiq va mehribon *oyijonim*. oʻz tashvishlari bilan Sizni unutmagan beaql, adashgan qizingiz maʼzur tuting. (Erkin Samandar.); 2) Ogʻa, sogʻ borsangiz avval *Dadamlarga* salom ayting, Yugurib chiqqan ul mushfiq *Onamlarga* salom ayting (Hamza); 3) Men uning *tillarini* kesib olaman, qoʻlimga bir tushsin yashshamagur. (E.Samandar.); 4) Bir oydan soʻng koʻzin yumib Mamaniyoz, *Koʻkalchaga* meros qopti bud-shud, oz-oz. (oʻofur oʻulom); 5) Seni oʻzimdek bilaman. Ol, *ukaginam*. (Said Ahmad.); 6) Ana sichqon, mushukvoy, Ana xoʻroz kuchukvoy. (oʻ. oʻulom.).

Vazifa semalar ham semema tarkibiga kiradi, ammo ular atash, ifodalash bilan birga leksemalarning nutqda oʻzaro birika olishini (valentligini distributsiyani), shu orqali gapda maʼlum vazifa bajarishini belgilaydi. Masalan, **choy** leksemasining leksik maʼnosi (sememasi) «qayta ishlangan» tarkibida «suyuqlik», «ichimlik», «quruq», «quritilgan», «choy oʻsimligi» sememalari bor. Bu semalar **choy** leksemasining *oʻstirmoq*, *ichmoq* *qaynatmoq* va *damlamoq* feʼllari bilan birika olishini taʼminlaydi: *choy oʻstirmoq*, *choy damlamoq*, *choy ichmoq*, *choy qaytanmoq* kabi. Biroq, **choy** leksemasi nutqda **yemoq** feʼli bilan birika olmaydi, bunga **choy** va **yemoq** soʻzlarining leksik maʼnolaridagi semalar tarkibi yoʻl qoʻymaydi.

Bir mazmuniy guruhga mansub leksemalarning sememalari qiyoslanganda , ularning semantik tarkiblarida integral (birlashtiruvchi) va differentsial (farqlovchi) semalar borligi ham maʼlum boʻladi. Bunday semalar leksemalarni oʻzaro birlashtirish va farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan, oʻzbek tilidagi *amaki*,

amma, *tog'a*, *xola*, *jiyan* leksemalarining barchasida «qarindosh», «yaqin qarindosh» semalari bor, shu semalar ularni bitta mazmuniy guruhga birlashtiradi, shunga ko'ra *integral (birlashtiruvchi) semalar* sanaladi; ayni paytda keltirilgan leksemalarning ma'no tarkibida farqlanish belgilari – *differentzial semalar* ham mavjud: **amaki** sememasidagi «otaning akasi yoki ukasi» semasi *tog'a* sememasida yo'q, *tog'a* sememasidagi «onaning akasi yoki ukasi» semasi esa **amaki** sememasida uchramaydi, demak, bu ikki sema yuqoridagi ikki so'zning ma'nolarini farqlash imkonini beradi; *amaki* va *amma*, *tog'a* va *xola* sememalari ham «qarindosh», «yaqin qarindosh» semalari bilan birlashadi, ammo «erkak» va «ayol» semalari bilan o'zaro farqlanadi; *jiyan* leksemasida esa «yoshi kichik», «akaning yoki ukaning farzandi» semalari farqlash vazifasini bajaradi.

Leksik ma'noni (sememani) tarkibiy qismlarga – semalarga parchalab o'rganish semasiologiyada komponent tahlil usuli deyiladi. Bu usul leksemalarning paradigmalarini, mazmuniy, tematik va hokazo guruhlarini aniqlashda qo'l keladi.

Terminlar fan, texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan, qo'llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominative birliklardir: *gulkosa*, *shona* (botanikada); *to'rtburchak*, *kvadrat* (geometriyada); *ega*, *kesim* (tilshunoslikda), *qofiya*, *turoq*, *vazn* (adabiyotshunoslikda) kabi. Terminlarning ifoda plani so'zga (*hujayra*, *to'qima*) yoki turg'un birikmaga (*o'q ildiz*, *popuk ildiz*) teng bo'ladi. Har ikki ko'rinishda ham termin leksema deb hisoblanadi, bunda uning nominativ birlik ekanligi e'tiborga olinadi. Terminlarning mazmun planida muayyan soha tushunchalari ifodalangan bo'ladi: Masalan, **boshoq** terminining mazmun planida «poya uchida o'sadigan to'pgul yoki to'pmevaning bir xili» tushunchasi ifodalangan.

Shaklan so'zga teng termin aslida leksemaning o'zidir, chunki u ko'pincha til sistemasida mavjud bo'lgan yoki shu tilning so'z yasash modellari asosida shakllangan leksemaning terminlashishi natijasida yuzaga keladi, natijada terminning ifoda plani ham, mazmun plani ham leksema bazasiga tayanadi. Qiyos qiling: **tish** (leksema: «odamning tishi», «hayvonlar tishi»)-**tish** (termin: «odamning tishi», «hayvonlar tishi»). Bunda leksemaning mazmun plani (leksik

ma'nosi) terminning mazmun planiga (tushunchaga) tengdir. Demak, terminlarda ko'pincha leksik ma'no bilan tushuncha o'zaro teng bo'ladi. Ba'zi sohalarda leksema o'zining ko'chma ma'nosida terminlashib qolishi ham mumkin, ammo bu hodisa juda kam uchraydi. Qiyos qiling: **gul**-botanikada: «o'simlikning urchish (ko'payish) organi»; **gul** amaliy san'at: «Biror narsaga chizib, tikib, bosib yoki o'yib tushirilgan bezak, naqsh». Bu misollarda *gul* leksemasi o'zining bosh ma'nosida botanikada, ko'chma ma'noda esa amaliy san'atda terminlashgan. Ammo bir sohaning o'zida leksemaning ikkita tushuncha nomi sifatida terminlashishi (ko'p ma'noli termin bo'lishi) terminologiyaning izchilligiga xilof bo'ladi. Masalan, *urug'* leksemasi uzoq yillar botanikada ikki tushunchaning nomi bo'lib keldi: 1) «o'simlikning uruHi» (ruscha: *semya*); 2) «turdan katta oiladan kichik taksonomik kategoriya» (ruscha: *rod*). Bunday polisemiya keyingi yillarda taksonomik kategoriya ma'nosidagi **urug'** terminining **turkum** termini bilan almashtirilishiga sabab bo'ladi. Ba'zan termin o'ta ommalashib, umumtil birligiga aylanib qoladi. Xususan, *radio*, *televizor*, *telefon* so'zlari ham ma'lum soha terminlari sifatida yuzaga kelgan, ammo hozirgi paytda bu terminlar ommalashib, barchaning nutqida qo'llanadigan, barchaga tushunarli bo'lgan so'zlarga aylangan. Bu hodisa tilshunoslikda determinlashish deyiladi.

Uzual ma'no leksemaning mazmun mundarijasida bir bo'lgan leksik ma'nodir. U til egasi bo'lgan xalq tomonidan tan olingan, demak, ko'pchilikka tushunarli bo'lgan ma'no hisoblanadi. Masalan, **tozalamoq** leksemasining mazmun mundarijasida quyidagi leksik (uzual) ma'nolar bor: 1) «kir, chang, ifloslik va kabilardan xoli qilmoq» (*tish tozalamoq, idishlarni tozalamoq, uyni tozalab supurmoq* kabi): *Yo'lchi ularga beda tashladi. Keyin kurak va supurgi olib otxonani tozalay boshladi.* («Qutlug' qon»dan); 2) «aralashmalardan, keraksiz, ortiqcha narsa va qismlardan xoli qilmoq» (*spirtni tozalamoq, dalani Ho'zapoyalardan tozalamoq* kabi): *Anvar gullarni sug'orish, o'tlarni yulib tozalash vazifasini o'zi bajardi.* («Mehrobdan chayon»dan.).

Okkazional ma'no leksemaning tildagi ma'nosiga xos bo'lmagan, ayrim shaxsning (muallifning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga

yangicha «tus» berishi natijasida yuzaga keltirilgan sun'iy ma'nodir. U individual xarakterda bo'ladi va faqat kontekstda anglashiladi. «Ichak uzar hangomalar»dan keltirilgan quyidagi dialogga e'tibor beraylik:

Qattiq kayf qilgan er xotinidan iltimos qilyapti:

Kostyumimni tozalab qo'y.

Tozaladim.

Shimimni tozalab qo'y.

Tozaladim.

Tuflimni tozalab qo'y.

Ie, tuflining ham cho'ntagi bormi?

Yuqoridagi matnda **tozalamoq** so'zining «shin-shiydan qilmoq» ma'nosi kulgiga sabab bo'layotganligini anglash qiyin emas. Aslida bu ma'no **tozalamoq** leksemasining mazmun mundarijasida yo'q, u asar muallifining uslubiy maqsadda kashf etgan leksik qo'llanishidir. ¹ Bunday leksik qo'llanishini (okkazional ma'noni) **gul** leksemasi misolida ham uchratib turamiz: gul leksemasining to'g'ri («o'simlik guli») va ko'chma («yigitlarning guli», «qizlarning guli») ma'nolari borligi ma'lum, ular shu leksemaning uzual ma'nolari (leksik ma'nolari) sanaladi, chunki **gul** so'zining bu ma'nolari shu leksemaning semantik tarkibidan barqaror o'rin olgan: Shoh qiz, shakar qiz, qizlarning guli, G'oshlaringni ko'rsatgil, men uning quli. («Doxunda»dan.)

Biroq **gul** leksemasining fan arboblari nisbatan metaforik qo'llanishi odat bo'lmagan, atoqli yozuvchi Oybekning quyidagi misralarida esa bu so'z ayni shu ma'noda ishlatilgan, demak, uning mazmun mundarijasiga okkazional ma'no tusi berilgan: *Fan, san'atning gullari butun, To'plangandi suhbat uchun.*

¹. Bushuy T.A, Safarov Sh.S. Til qurilishi: Tahlil metodlari va metodologiyasi. Toshkent, Fan, 2007

Gul leksemasining okkazonal ma'noda qo'llanishi quyidagi gapda yanada ko'proq voqe bo'ladi: «Gul yuzing ochib, ey gul, majlisim guliston qil». (Feruz). Demak: a) uzual ma'no til birligi (leksik ma'no), okkazonal ma'no esa nutq birligi (leksik qo'llash) sanaladi; b) uzual ma'no (yoki ma'nolar) kontekstgacha shakllangan bo'ladi, okkazonal ma'no esa kontekstning o'zida yuzaga keladi, shu kontekst darajasidagina leksemaga biriktiriladi; v) uzual ma'no leksemaning leksemaning biror predmet yoki hodisasi nomlashi bilan bog'langandir (unda oyurazlilik ifodasi bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin), okkazonal ma'no esa nomlamaydi, unda obrazlilik ifodalanadi, xolos; g) uzual ma'no tilning lug'at boyligidan o'rnin oladi, okkazonal ma'no esa esa vaqt o'tishi bilan lug'at boyligiga kirib qolishi (hozirgacha kirmagan) potentsial imkoniyatdir. Bunday inkoniyat amalga oshishi ham, oshmay qolishi ham mumkin chunonchi, **o'girmoq** leksemasining tilda quyidagi leksik ma'nolari bor: 1) biror tomonga qaratmoq, burmoq. *Ra'no yuzini chetga o'girib, boshidagi ro'moli bilan yuzini arttdi, uzun entikdi.* («Mehrobdan chayon»dan.); 2) aziz-avliyolarga atab boshi yoki ustidan pul yoki biror buyumni aylantirib sadaqa qilmoq: *Oftob oyim erining bu so'zini eshtishi bilan Xo'ja Bog'viddin yo'lga o'girib qo'ygan yetti tanga pulini To'ybekaga berib, darrov eshannikiga jo'natdi.* («o'tgan kunlar»dan.). Biroq, o'girmoq leksemasi keyingi yillarda «tarjima qilmoq» ma'nosida ham qo'llanmoqda: *Shunisi diqqatga sazovorki, XIX asrlarda rus yozuvchilarining asarlari ham xorijiy tillarda ko'plab tarjima qilina boshlandi. Masalan, XVIII asr va XIX asrning boshlarida yaratilgan rus lirikasi namunalari va "Revizor" komediyasi nemis tiliga, N.V.Gogolning bir qancha nasriy asarlari frantsuz tiliga o'girildi.* (o'.Salomov)

Bu nutqiy parchada **o'girmoq** leksemasining uslubiy qiymati ham yo'q emas: u **tarjima qilmoq** leksemasining kontekstda ikki marta takrorlanmasligiga erishish (leksik tavgalogiyaga barham berish) maqsadida ishlatilgan, shuning uchun bo'lsa kerak **o'girmoq** leksemasining «tarjima qilmoq» ma'nosida qo'llanishi asta-sekin odat tusiga kirib bormoqda. Demak, bu leksemaning ana shu okkazonal ma'nosi uzual ma'noga o'tish jarayonini boshidan kechirmoqda deyishga asos bor.

IKKINCHI BOB: POLISEMIYA (KO'P MA'NOLI SO'ZLAR) NING MA'NO VA MAZMUN JIHATDAN O'ZIGA XOSLIGI

Leksik polisemiya (yunoncha: poli-«ko'p»+semia-«belgi») – leksemaning bir necha ma'noga ega bo'lishi. Masalan, 塩(shio)—**tuz** leksemasining semantik tarkibida quyidagi leksik ma'nolar bor: 1) «kislород tarkibidagi vodorod o'rnini biror metal egallashi natijasida hosil bo'ladigan kimyoviy birikmalar» (*asosiy tuzlar, sulfat kislota tuzlari*); 2) «kimyoviy birikmaning ovqat uchun ishlatiladigan bir turi» (osh tuzi); 3) ko'chma: «kimsaning boshqa odamga bergan, yedirgan-ichirgan ovqati» (*tuz bermoq, tuzini yemoq*); 4) ko'chma: mantiq, ma'no, mazmun: «Iyi-iyi, bu oyimchaning gapida tuz bormi o'zi?» (I.Rahim.) Leksik polisemiya odatda, bir leksemaning semantik tarkibidagi leksik ma'nolar orasida mazmuniy bog'lanish borligiga tayanadi, shu xususiyati bilan leksik omonimiyadan farq qiladi.

Biroq yapon tilida leksik omonimiya haqida gapirilganda, hiraganada yozilishi bir xil bo'lsa-da, kanjida mutlaqo boshqacha yozuvga ega bo'lib, ma'no jihatdan ham bir-biridan katta farq qiladi. Masalan: かく leksemasining kanjilarda ifodalanish xususiyatini ko'rib chiqamiz.

核 1: mag'z;

2: uzak;

3: yadro;

4: yadroviy qurol

格 かく ko'rinish, fe'l-atvor

画 かく qator

角 かく 1: burchak;

2: to'rtburchak;

3: shogi do'koni;

4: 3-daraja (yapon va xitoy o'lchov birligida);

劃 かく qator (kanji, etc.)

客 かく 1: mehmon;

2: xaridor, yo'lovchi

廓 かく 1: rayon, o'lchov;

2: ochgich;

殼 かく chig'anoq

確 かく aniq

膈 かく diafragma

隔 かく har bir

搔く かく 1: qashlamoq, tirnamoq;

書く かく 1: yozmoq;

2: chizmoq

欠く かく shikastlamoq

佳句 かく lirik chekinish

描く かく chizma hosil qilish

斯く かく xuddi, kabi

画く かく reja tuzish

Yuqorida berilgan misollarning ba'zilarini polisemantik xususiyatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular qo'yidagicha ma'no kasb etadi:

書く (かく) - **yozmoq, bitik bitmoq**

書類 – material, manba

文書 – gap, matn

書物 – kitob, asar

報告書 – ma'ruza

Yuqorida keltirilgan **yozmoq, bitik bitmoq** fe'lining asosida vujudga kelgan leksemalar orasida mazmuniy bog'lanish borligiga tayangan holda, shu xususiyati bilan undan oldin berilgan leksik omonimiyadan farq qiladi.

Leksik monosemiya (yunoncha: monos – «bir»+semia – «belgi») – leksemaning faqat bitta ma'noga ega bo'lishi. Masalan, こめ—**guruch** leksemasi «sholidan oqlab olinadigan oshlik don» ma'nosini, **abadiy** leksemasi «mangu, doimiy» ma'nosini, 夜 (yoru)—**tun** leksemasi «sutkaning kun botishdan kun chiqqungacha, oqshomdan tong otguncha bo'lgan qismi» ma'nosini ifodalaydi. Bu leksemalarning boshqa ma'nolari yo'q. Monosemiya hodisasi tilshunoslikda *bir ma'nolilik* deb ham yuritiladi. Bir ma'nolilik ko'proq terminlarga, yangi yaratilgan yoki tildan yangi o'zlashtirilgan leksemalarning boshlang'ich ishlatilish davriga xosdir: *to'rtburchak* (matem.termin), *gummaxona* (yangi yaratilgan leksema), スーパー—*super market* (yangi o'zlashtirilgan so'z) va b.lar. Yangi yaratilgan yoki boshqa tildan yangi o'zlashtirilgan leksemalar vaqt o'tishi bilan turli lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida ko'p ma'noli so'zlarga aylanib qolishi mumkin. Atoqli otlar ham shartli ravishda monosemantik leksemalar qatoriga qo'shiladi.

Bir predmet (yoki hodisa) nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyatiga ega bo'lishi. Bunday ko'chish shu nom bilan atalayotgan ikki yoki undan ortiq predmet (hodisa) o'rtasidagi aloqadorlikka

asoslanadi. Masalan, 息 (iki) — **nafas** leksemasining bosh (to'g'ri) ma'nosi «o'pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo»dir, ammo *nafasingizni iliq qiling* deganda **nafas** leksemasi «havo»ni emas, «gap»ni va «niyat»ni ifodalamoqda, chunki nafas olish va nafas chiqarishsiz gap shakllanmaydi, gapsiz esa fikr-niyat ifodalanmaydi: nafas gap fikr-niyat o'rtasidagi ana shu aloqa va bog'lanish nafas leksemasining mazmun mundarijasidagi ma'no ko'chishlariga sabab bo'lgan.

Tilda ma'no ko'chishining quyidagi turlari uchraydi:

1. Metafora yo'lli bilan ma'no ko'chirilishi.

a) ifodalanayotgan predmetlar (hodisalar) o'rtasidagi shakliy o'xshashlik asosida:

鼻 (hana)—*burun* («odamning burni»-bosh leksik ma'no) *burun* («choynakning burni»-hosila ma'no);

b) ikkita belgi xususiyat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida: 早 (hayaku)—**tez** («oz vaqt ichida, darrov»-bosh leksik ma'no: *majlis tez tugadi*) – *tez* («darrov achchig'lanadigan, jizaki»- hosila ma'no: *tez odam*); 頂上(chojo)—**cho'qqi** («tik narsalarning eng yuqori nuqtasi»- bosh leksik ma'no: *tog' cho'qqisi*)- **cho'qqi** («erishilgan yoki erishilishi mumkin bo'lgan eng yuqori pog'ana, daraja, ko'rsatkich»-hosila ma'no: *ilm-fan cho'qqisi; baxt cho'qqisi*);

v) narsa-predmetlarning u yoki bu qismlarini o'rin nuqtai nazaridan o'xshatish asosida: 頭 (atama)—**bosh** («tananing bo'yindan yuqoridagi qismi»- bosh leksik ma'no: *odamning boshi*) – *bosh* («tik narsalarning tepa qismi»-hosila ma'no: *shamol bo'lmasa, daraxtning boshi qimirlamaydi*);

g) bajarilgan yoki bajariladigan ish-harakat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida: urmoq («qo'l yoki biror predmet vositasida zarba bermoq»-bosh leksik ma'no: *Bektemir miltiq qo'ndog'i bilan uning peshonasiga bir urdi*) – *urmoq* («tanqid qilmoq»-hosila ma'no; *Otabuvamni kavlab, gazetaga urib chiqishdi*).

2. Vazifadagi o'xshashlik asosida ma'noning ko'chirilishi (funktional ko'chirish):

tomir (*anat.* «qon tomirlari»-bosh leksik ma'no) – *tomir* (*biol.* «o'simlik tanasida suyuqlik va undagi erigan moddalar oqadigan to'qima naychalar»-hosila ma'no).

Tomir leksemasining semantik tarkibidagi bu ikki ma'no shu leksema bilan atalayotgan «qon tomirlar» va «o'simlik tanasidagi to'qima naychalar» bajararayotgan vazifadagi o'xshashlikka asoslangan: har ikki holatda ham ular (tomir va naychalar) tirik organizm uchun kerakli moddalarning butun tana va to'qimalar bo'ylab tarqalishi uchun xizmat qiladi.

Vazifadoshlik asosida ma'noning ko'chirilishi **o'q** (nayzaning o'qi) - **o'q** (miltiqning o'qi)- **o'q** (zambarakning o'qi) kabi nomlanishlardan ham bor; Ba'zan ma'noning ko'chirilishida metafora va funktsiyadoshlik (vazifadoshlik) omillari birga qatnashadi: 齒 (ha)—**tish** («odamning tishi») – **tish** («arraning tishi») kabi. Bunda odam tishlari o'rtasidagi shakliy-vazifaviy o'xshashliklar ma'no ko'chirilishiga olib kelgan; 羽—**qanot** («qo'shning qanoti») leksemasining ko'chma ma'noda ega bo'lishi (samolyotning qanoti ifodalanish) ham shakliy-vazifaviy o'xshashlikka asoslangan;

3. Metonimiya yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi (yunoncha: metonimiya – «qayta nomlash»). Bunday ko'chirilish predmetlar yoki hodisalarning o'zaro aloqadorligiga asoslanadi. Buning quyidagi ko'rinishlari bor:

a) o'simlikning nomi shu o'simlik mevasidan yoki boshqa biror qismidan tayyorlangan mahsulotga ko'chiriladi: **muskat** (uzumning bir navi) – **muskat** (shu uzum navidan tayyorlangan vino), お茶—**choy** (o'simlikning bir turi) – **choy** (shu o'simlikning barglaridan tayyorlangan ichimlik), コーヒー—**qahva** (qahva daraxti) - **qahva** (shu daraxt mevasidan tayyorlangan ichimlik kofe);

b) zamon va makonda bir-birining bo'lishini taqozo qilgan hamda birga qo'llanadigan ikki (yoki bir necha) predmetdan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi: お茶だけでも—*bir piyola choy ichmoq* (piyola o'z ma'nosida) – *bir piyola ichmoq* (piyola-ko'chma ma'noda);

v) bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmet-voqelikka ko'chiriladi: 教室 (kyoshitsu)—*sinf* («o'quv xonasi») – *sinf* («o'quvchilar guruhi»), 町 (machi)—*shahar* («yirik aholi punkti») – *shahar* («shahar aholisi») kabi.

Masalan: «Yangi yilni kutish bog'nasida tunni bedor o'tkazgan shahar tongni ko'zda uyqu bilan kutib oldi» (T.M.)

g) narsa nomi shu narsaga asoslangan o'lchov birligiga nom bo'lib ko'chadi: 日 (hi) — *kun* («quyosh»)- *kun* («sutkaning yorug' qismi»), 月 (gatsu) — *oy* («planeta»)-*oy* («yilning o'n ikkidan bir qismi»). Ba'zan buning aksi ham bo'ladi: vaqt o'lchovi nomi vaqtni o'lchaydigan asbobga nom bo'lib ko'chadi: 時間 (jikan) — *soat* («sutkaning yigirma to'rt dan biriga teng vaqt»)-*soat* («vaqtni sutka davomida o'lchab beradigan asbob»);

d) belgining nomi shunday belgisi bor bo'lgan narsaga (predmetga) ko'chiriladi: 青い — *ko'k* (rang nomi)-野菜 — *ko'k* («ko'kat») – 空 — *ko'k* («osmon»); 細い — *yupqa* («qalinlik aksini») - *yupqa* (taom nomi) (24-84-b.) Bunday ko'chirilish leksik-semantik yo'l bilan yangi so'zning yasashiga ham olib keladi. Qiyos qiling: 青い *ko'k* (1)-sifat, 野菜 *ko'k* (2)-ot, 空 *ko'k* (3)-ot; 細い *yupqa* (1)-sifat, *yupqa* (2)-ot kabi. Demak, *ko'k* (1), *yupqa* (1) sifatlaridan *ko'k* (2), *ko'k* (3) va *yupqa* (2) otlari yasalgan.

Bu hol polisemiya bilan so'z yasashi va omonimiya hodisalari o'rtasida o'ta murakkab munosatlarning birligidan dalolat beradi. Ularni maxsus tadqiq qilish tilshunosligining navbatdagi vazifalaridan biridir.

e) asar muallifining nomi nutqda «asar» ma'nosida qo'llangan bo'lishi mumkin: *Navoiyni o'qidim, Oybekni o'qiyapman* kabi. Bunday paytlarda muallif nomi aytiladi-yu, uning asari (yoki asarlari) nazarda tutiladi. Demak, bunda ham metonimiya bor, ammo u til metonimiyasi emas, nutq metonimiyasidir.

4. Sinyekdoxa yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi (yunoncha: synekdoche – «birga anglamoq», «qo'shib anglamoq»). Bunday ko'chirilish nogmlanayotgan predmet yoki hodisalarning miqdor belgilariga tayanadi:

a) butunning nomi qismga ko'chiriladi: 手 — *qo'l* (butun) - *qo'l* (qism – «barmoq» ma'nosida: *Besh qo'l barobar emas*), 頭 — *bosh* (butun)- *bosh* (qism-«miya», «aql-xush» ma'nolarida: *Tog'ning ko'rki tosh bilan, odamning ko'rki bosh bilan*);

b) qismning nomi butunga ko'chiriladi: りんご—**olma** (qism-«meva»)- **olma** (butun – daraxt: *olma gulladi*), **eshik** (qism – «uyning eshigi», «hovlining eshigi») – eshik (butun – «uy», «hovli»: *Eshigimda juda ko'p odamlar ishlagan. O.*), tirnoq (qism) – tirnoq (butun – «bola», «farzand»: *Sizga oHir. Peshanangizga tirnoq bitmadi. Ko'nglingiz yarim. R.*), tuyoq (qism) – tuyoq (butun – "uy hayvoni", "mol": *Nikolay zamonida ostonam tuyoq ko'rmagan. O.*).¹

Ma'noning kengayishi – leksemaning ma'no hajmida tor ma'nodan keng ma'noga qarab siljishining yuz berishi. Masalan, *yaylov* so'zi dastlab "tog'ning tepasidagi o'tloq"ni ifodalagan: qadimgi turkiy tilda *yay* (*yay*) so'zi "yoz"ni, *yaylav* so'zi esa "yozlaydigan joy"ni anglatgan. Chorvadorlar yoz payti molni tog'ning tepasidagi o'tloqlarda ("yaylav"da) boqishgan, qishda esa "yaylah"dan "qishlag"ga tushib yashashgan. Hozirgi paytda *yaylov* so'zi faqat tog'ning tepasidagi "mol boqiladigan o'tloq"ni emas, balki umuman "mol boqiladigan maydon"ni anglatadi, bunday maydon tog'ning tepasida ham, dasht-adirlarda va hatto pasttekisliarda ham bo'lishi mumkin. Bunday ma'no kengayishi *qishloq* so'zining semantikasida ham sodir bo'lgan: u dastlab "qish faslida yashaydigan joyni"ni anglatgan, hozir esa umuman "aholi yashaydigan punktning bir turi" ma'nosini ifodalaydigan.

Tilshunoslikda atoqli turdosh otga o'tishini ma'no kengayishi deb bog'lash holatlari ham bor. Masalan: *Rizamat* (atoqli ot) – rizamat (mahalliy, xo'raki va mayizbop uzum navi). Bu nav mashhur Sohibkor Rizamat ota Musamuhamedov tomonidan yetishtirilgan va shu sohibkor nomi bilan atalgan (demak, so'zning ma'no hajmi kengaygan).

Ma'noning torayishi – leksemaning ma'no hajmida keng ma'nodan tor ma'noga qarab siljishning yuz berishi. Masalan: 国—*vatan* (keng ma'noda: "kishi tug'ulib o'sgan mamlakat, ona-yurt") – *vatan* (tor ma'noda: "kishi tug'ilib o'sgan

¹ 幹夫河原崎「日本語かな入門英語版」国際交流基金日本語国際センタ浦和、日本—

shahar yoki qishloq"). Turdosh otning atoqli otga o'tishi ham tilshunoslikda ma'no torayishi deb qaraladi. Masalan: かぐー**bolta** (turdosh ot) – **Bolta** (atoqli ot), 花ー**gul** (turdosh ot) – ロラー**Lola** (atoqli ot) kabi.

Leksik ma'no taraqqiyoti natijalari ikki xil bo'ladi: 1) so'zning semantic tarkibidagi ma'nolar miqdori ko'payadi, demak, miqdor o'zgarishi yuz beradi, bu hol polisemiyaga (ko'p ma'nolilikni) va omonimiyaga olib keladi. Xususan, metafora, vazifadoshlik (funktsiyadoshlik) va senekdoxa yo'llari bilan ma'no ko'chirilishida ko'proq polisemiya yuzaga keladi, chunki bir leksemaning semantik tarkibida leksik ma'nolar miqdori ko'payadi: 目ー**ko'z** ("ko'rish a'zosi") – **ko'z** ("uzukning ko'zi") – **ko'z** ("taxtaning ko'zi") – metafora; 齒ー**tish** ("odamning tishi") – **tish** ("arraning tishi")- metafora va funktsiyadoshlik; チイリー**gilos** ("mevaning bir turi") – **gilos** ("gilos daraxti") sinekdoxa. Metonimiya yo'li bilan ma'no ko'chishida natija ikki xil bo'ladi: a) polisemiya yuzaga keladi (bunda ma'nolar o'rtasidagi bog'lanish saqlanadi): したー**til** ("nutq a'zosi") – **til** ("aloqa-aralashuv quroli"); b) omonimiya paydo bo'ladi. Bunda ma'nolardagi bog'lanish kuchsizlanadi, uzoqlashadi, hatto unutiladi, natijada shakli bir xil bo'lgan ikki so'z yuzaga keladi. Masalan, 暑いー**issiq** (sifat) leksemasi asosida **issiq** (ot) – leksemasi yuzaga kelgan. Bunda: "belgi" kategorial semasi "predmet" kategorial semasiga almashgan; sifatdagi semalar tarkibida "norma (o'lchov)", "ortiq" semalari tashlangan; "harorat" semasi yana ham abetraktlashish tomon taraqqiy qilgan, ana shu abetrakt sema ot leksemasining semantic mundarijasini tashkil etib qolgan. Demak, sifatdagi semalar tarkibidagi "harorat" predmet semasi aktuallashib, qolgan semalarning so'nishi yo'li bilan ot leksema (semema) yuzaga kelgan. Bu hol 暑いー**issiq** (sifat) va **issiq** (ot) omonimlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Bunday omonimlashishni bir so'z turkumidagi 日ー**kun** (quyosh) va **kun** ("sutkaning ertalabdan kechqurungacha bo'lgan qismi") so'zlarida ham ko'ramiz; 2) so'zning semantik tarkibida ma'no hajmi o'zgaradi. Bunda ma'nolar miqdori ortmaydi, bitta ma'noning hajm ko'lamini kengayadi yoki torayadi, xolos.

2.1. Omonimiya va polisemiya

Omonimiya va polisemiya hodisalari o'rtasida ma'lum o'xshashlik va tafovut bor. Omonimiyada ham, polisemiyada ham ifoda plani (shakli) bir xil bo'ladi, har ikki holatda birdan ortiq ma'no ifodalanadi. Omonimiyada shakli bir xil bo'lgan ikki yo undan ortiq so'z (leksema) nazarda tutiladi; polisemiyada esa bir necha ma'nosi bor bo'lgan bitta leksema haqida gap beradi. Omonim leksemalarning ma'nolari har xil bo'ladi, bu ma'nolar o'rtasida bog'lanish yo'q. Ko'p ma'noli so'zning ma'nolari ham har xildir, ammo ular o'rtasida bog'lanish bor: ular ma'no ko'chishi asosida yuzaga kelgan bo'ladi. Qiyos qiling:

bo'z (1) – «gazlamaning bir turi».

bo'z (2) – «o'simlikning bir turi».

Bular shakli bir xil, ammo ma'nolari har xil bo'lgan ikkita leksema (omoleksemalar) hisoblanadi. 背 中 — bel -1) «umurtqa pog'onasining pastki qismi»; 2) «odam gavdasining o'rta qismi»; 3) «biror predmetning o'rta qismi» (tog'ning beli) Bunda bitta bel leksemasining uchta ma'nosi berilgan, bu ma'nolar o'rtasida bog'lanish mavjud.

Leksik omonimiya leksemalarning ifoda planidagi (talaffuzi va yozilishidagi) tenglik hodisasi. Masalan, 火—o't («olov») - 草—o't («maysa»), ベルト—kamar («qayin, ko'ndan ishlangan belbog'») – 穴—kamar («daryo, tog'larda suv o'yib ketgan chuqur joy») kabi. Leksik omonimiyada ikki xil hodisa mavjud: omonimlar va omoformalar.

1. Omonimlar shakli bir xil, ma'nolari har xil (o'zaro bog'lanmagan) leksemalardir (yuqoridagi misollar). o'lar omonim omoleksemalar deb ham ataladi. Bunday omonimlarning ko'pchiligi bir so'z turkumiga mansubdir, shu sababli ularning nutqdagi grammatik shakllari ham bir xil bo'ladi. Qiyos qiling: ot («ism») – o'tim, oting, oti; otni, otning, otga... kabi, ot («hayvon») – o'tim, oting, oti; otni, otning, otga... kabi. Yana: bo'sh (sifat) – «ichiga hech narsa solinmagan»: *bo'sh chelak* kabi; *bo'sh* (sifat) – «tarang tortilmagan»: *arqonni bo'sh tortib bog'lamoq*

kabi. Bu tipdagi omonimlar (omonim omoleksemalar) turli soʻz turkumlariga mansub boʻlishi ham mumkin. Bunday paytda omonimik munosabatga kirishayotgan soʻzlar shakllanish tizimiga ega boʻlmasliklari kerak. Masalan, *tabiiy* (sifat) va *tabiiy* (modal soʻz): 1) *U tabiiy fanlarga koʻproq qiziqadi.* (Bu gapda *tabiiy* sifat, aniqlovchi); 2) Soʻzamol, badavlat qori togʻaning birdan koʻz yumib sukutga botishining sababini, tabiiy, Yoʻlchi tushunmadi (Bu gapda *tabiiy* – modal soʻz, kirish soʻz).

2. Omoformalar ayrim grammatik shakllardagina teng keladigan leksemalardir. Ular *omoforma omoleksemalar* deb ham nomlanadi. Masalan, *sur* (ot: «qorakoʻl teri navi») va *sur* (sifat: «och koʻlrang») Leksemalari ayni shu lugʻatga kiritiladi, biroq ot turkumidagi *sur* leksemasi turlanganda (*surni, surning, surga...* kabi) *sur* (ot) va *sur* (sifat) oʻrtasidagi shakliy tenglik yoʻqoladi. Demak, bu ikki leksema oʻrtasidagi shakliy tenglik ot turkumidagi *sur* soʻzi bosh kelishik shaklida boʻlgandagina siqlanib, boshqa shakllarida yoʻqoladi, shu xususiyati bilan omoforma omoleksemalar omonim omoleksemadan farq qiladi. *oʻt* (ot: olov) va *oʻt* (feʼlning ikkinchi fan.boʻyruq maylidagi shakli) munosabatiga boshqacharoq holat kuzatiladi: *oʻt* feʼl shakli lugʻatga *oʻtmoq* shaklida kiritiladi, binobarin, *oʻt* (ot) va *oʻtmoq* (feʼl) oʻrtasidagi shakliy tenglik yoʻqligi maʼlum boʻladi, shunga qaramay feʼlning ikkinchi shaxs boʻyruq maylidagi *oʻt* shakli bilan otning bosh kelishigidagi *oʻt* shakli omoforma omoleksema sanaladi. Bu leksemalardagi omoforma munosabati *oʻting* (sening oʻting) va *oʻting* (siz oʻting) kabi shakliy tenglikda ham yuzaga keladi, ammo *oʻtni, oʻting* (otning kelishik shakllari) va *oʻtgin, oʻtsin* (feʼlning boʻyruq mayli shakllari) kabi holatlarda omoforma paydo boʻlmaydi. Demak, omoforma boʻlish turli soʻz turkumlariga mansub leksemalarning ayrim grammatik shakllarigagina xos. Omoformalarda negizga qoʻshilayotgan affikslar ham shaklan teng boʻladi, shunga koʻra bunday qoʻshimchalar omoaffikslar sanaladi. Qiyos qiling: *oʻting* («-ing»-otning egalik kategoriyasiga mansub affiks) - *oʻting* («-ing»-feʼlning boʻyruq mayliga mansub affiks) kabi.

Omonim omoleksemalar nutqda turlanib yoki tuslanib turli shakllarga kiradi.

Qiyos qiling: *bog'* (ot turkumi: «meva daraxtlar ekilgan zor, daraxtzor») va *bog'-2* (ot turkumi «beda, o't bog'lami»). Bu ikki ot nutqda turlanib, o'zaro teng bo'lgan so'z formalarini (grammatik shakllarni) hosil qiladi:

Bog'-1: bog'ni, bog'ning, bog'ga, bog'lar... kabi.

Bog'-2: bog'ni, bog'ning, bog'ga, bog'lar... kabi.

Bunday shakllar so'z formolari sanaladi. So'z formalaridagi tenglik omoforma omoleksemalarga ham xos (yuqorida ko'rib o'tildi). Demak, nutqda omonimlar ham, omoformalar ham so'zformalar omonimiyasini yuzaga keltirishi mumkin. Omonimlarning yuzaga kelishi sabablari har xildir. Xususan:

1. Tilda azaldan mavjud bo'lgan ayrim so'zlarning shakli tasodifan teng bo'lib qoladi: *baqa* («qurbaqa») va *baqa* («suv tegirmonining parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qismi»).
2. Bir ma'noli so'z leksik ma'noning ko'chishi oqibatida ko'p ma'noli so'zga aylanadi, keyinroq bosh ma'no va hosila ma'no o'rtasidagi bog'lanish unutilib bir so'z negizida ikkita boshqa-boshqa leksema paydo bo'ladi: *kun* («quyosh»)- *kun* («sutka», «kun chiqqandan yana kun chiqqungacha bo'lgan vaqt») kabi.
3. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim leksemalar o'zbek tilidagi u yoki bu leksemaga shaklan teng bo'lib qoladi: *toy* (o'zb. «otning ikki yashardan kichik bolasi») – *toy* (f-t: «katta to'p qilib taxlab yoki bog'langan mol va shu tarzda mol o'lchovi»).
4. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksemalar orasida ham shaklan teng bo'lgan so'zlarning uchrashi natijasida: *rasm* (arabcha: «surat») – *rasm* (arabcha: «urf-odat»).
5. Leksemalar yasalishi ham ba'zan omonimlarni keltirib chiqaradi: *qo'noq* (*qo'n+oq*: «tariq») - *qo'noq* (*qo'n+oq*: «mehmon») kabi.

Tilda leksik omonimiya yondosh bo'lgan hodisalar ham bor. Bular quyidagilar:

1. Omofonlar – talaffuzi bir xil, yozilishi har xil bo'lgan leksemalar: *to'rt* (son turkumidagi so'z) – *tort* (ot turkumidagi so'z: «konditer mahsuloti»), *to'n* («kiyim») – *ton* («tovush toni»), *bob* (talaffuzda: **bop**) va **bop** kabi.

2. Omograflar – yozilishi bir xil, talaffuzi har xil bo'lgan leksemalar: *soya* («quyosh nuri tushmaydigan salqin joy») – *soya* («dukkakli o'simlikning bir turi va uning doni») *rom* (spirtli ichimlikning bir turi) kabi.

Tilda urg'usining o'rni bilan farq qiladigan, ammo bir xil yoziladigan leksemalar ham bor: atlas («material») – atlas («geogr. atlas»), fizik («fizik hodisa») – fizik (fizika mutaxassisi) kabi. Bular urg'u beligisiz yozilganda omograflar sanaladi, urg'u belgisi qo'yilganda (atlas va atlas, fizik va fizik kabi grafik shakllarga kirganda) esa omograf bo'lmaydi. Biroq bunday holatlar tilshunoslikda maxsus nomga ega emas.¹

Omonimlar va omoformalar til va nutqda o'ziga xos uslubiy vositalar rolini bajaradi: misralarning qofiyalanishini, tuyuq va askiya janrlariga xos so'z o'yinini (tajnisni) ta'minlaydi, shu asosda badiiy asarga husn bagi'shlaydi. Masalan:

Bir parcha o't bo'lib bunda **kun**

Paxtasini ishlaydi har **kun**.

(H.O)

Uyimda kunduzi vaqt erdi choq **tush**,

Yotib uyqumda ko'rdim bir ajib **tush**.

G'o'pol do'q qildi bir mansabga mag'rur,

Dedim: o'pkangni bos, bir parda past **tush**.

(Hab.)

Yaxshilar insonning ko'nglini **bezar**,

Yomonlar fe'lidan odamlar **bezar**,

Insonga oy olib bergandan ko'ra,

Kishi ko'nglini to'ldir, bekumush **bezar**.

(V.Sa'd.)

¹ Radford A. Lexicology. Japanese minimalist introduction. Cambridge University Press, 2002.

2.2 Sinonimiya va polisemiya

Sinonimiya va polisemiya o'rtasida ma'lum bog'lanish bor. Xususan, polisemantik leksema har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonimik qatorlarga kirishi mumkin: 火を付ける — olov yoqmoq 火を付ける — va o't yoqmoq (sinonimlar: olov va o't), quyosh olovi va quyosh xarorati (sinonimlar: olov va xarorati), olov yigit va Hayratli yigit (sinonimlar: olov va Hayratli) kabi. Sinonimlar nutqda uslubiy vosita sanaladi: Ular nutqning ravon va ta'sirli bo'lishini, fikrning aniq va obrazli chiqishini ta'minlaydi. Sinonimiya hodisasi frazemalar va grammatik birliklar (morfemalar, so'z birikmalar va gaplar) doirasida shuningdek leksema va frazema munosabatlarida ham uchraydi.

Leksik sinonimiya leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishidir: *yelka, kift, o'miz* (birinchi guruh); *in, uya, oshyon* (ikkinchi guruh); *nur, shu'la, yoHdu, ziyo* (uchinchi guruh) va b.lar. Bunday guruhlar tilshunoslikda *sinonimik qatorlar* deb nomlanadi. Har bir sinonimik qatorda:

a) leksemalarning denotativ ma'nosi bir xil, ifoda semalari (ma'no qirralari, uslubiy bo'yoqlari, sub'ektiv bog', qo'llanish doirasi) har xil bo'ladi. Masalan, *ozod, erkin, hur, sarbast* leksemalari bitta denototni — "o'z erki, haq-huquqiga farqlanuvchi ifoda semalari ham bir: Xususan, 自由 — **erkin** leksemasi bir qadar betaraf ma'noli bo'lsa, フリ — **ozod**, leksemasida ko'tarinki ruhni ifodalash, **hur** leksemasida badiiy uslubga xoslik sezilib turadi, **sarbast** leksemasi esa eskirgan, kitobiydir. Qiyos qiling: **Erkin** nafas olmoq (o'TIL, 2- tom, 451). *Toki, bizdan olis avlodlarga ozod va obod vatan qolsin!* (I.Karimov). *YAshnagan el tillarda doston, G'utlug' nomi hur o'zbekiston* (M.SH.). *Podshohning nikohida bo'lgan xotinlari posbonlar bilan uncha hisoblashmay, ko'pincha ularni qo'lga olib, sarbast yashaydilar* (O.);

b) ifoda semalari ba'zan darajalanadi: *yuz, bet, aft, bashara, turq* leksemalarining barchasida ("yuz"dan boshqalarida) salbiy bo'yoqli semalar bor, biroq bu semalarda salbiy bo'yoqning ifodalanish darajasi har xil: u "bet"dan "turq"qa tomon ortib, kuchayib boradi. Qiyos qiling: *U betlari yumdalangan, oppoq*

sochlari yulingan bu telba xotinni o'zining qirq yillik umr yo'ldoshiga o'xshata olmadi. (M.Ism.), *SHerbakning ko'ziga Xo'jabekovning **aftidan** nahs tomayotgandek jirkanch bo'lib ko'rinib ketdi* (S.An.), *U bir ko'ngli, borib, muttaham qozining tumshuHiga tushirgisi yo iflos **basharasiga** tupurgisi keldi.* (M.Ism.). *Devor ustida turgan o'n ikki yoshlardagi bir qiz devordan kesak ko'chirib olib, Mulla Norqo'ziga o'xtaldi: "Xu o'l, **turqing** qursin!"* (A.G'.);

c) ifoda semalari bo'lmagan, betaraf ma'noli leksemalar sinonimik qatorning **dominantasi** sanaladi. Chunonchi, *yuz, bet, aft, bashara, turq* (dominanta - yuz); *nur, shu'la, yoHdu, ziyo* (dominanta - nur); *yolg'iz, yakka, tanho* (dominanta - yolg'iz) kabi. Bulardan yuz (birinchi qator), nur (ikkinchi qatorda) va yolg'iz (uchinchi qatorda) betaraf ma'nolidir;

g) leksemalarning turkum semalari bir xil bo'ladi, bu hol sinonimlarning bir so'z turkumiga birlashishini taqozo qiladi: *bog'r* va *ko'klam* (ot), *chiroyli* va *go'zal* (sifat), *so'zlamoq* va *gapirmoq* (fe'l) kabi.

Yuqoridagi xususiyatlardan, ayniqsa, ifoda semalarining har xilligidan kelib chiqib, leksik sinonimlar quyidagi turlarga ajratiladi:

1. **Ma'no sinonimlari** (ideografik sinonimlar). Bunday sinonimlar ma'no qirralari bilan farqlanadi. Masalan, *achchiqlanmoq, G'azablanmoq, qahrlanmoq* leksemalari "G'azabi kelmoq" ma'nosi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi, ammo ularda shu ma'noni ifodalash darajasi bir xil emas, u "achchiqlanmoq"dan "G'azablanmoq"qa, "G'azablanmoq"dan esa "qahrlanmoq"qa qarab kuchayib boradi.

2. **Uslubiy sinonimlar** (stilistik sinonimlar). Bunday sinonimlarning leksik ma'nosi ijobiy yoki salbiy bo'yoqlar (uslubiy semalar) bilan qoplangan bo'ladi, ayni shu uslubiy semalar chinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan, *jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq* va *irshaymoq* leksemalarining barchasida bitta leksik ma'no – "ovoz chiqarmay miyiHida kulish" hodisasini nomlash bor, ammo shu ma'no **jilmaymoq** leksemasida bir oz ijobiy, *iljaymoq* leksemasida esa bir oz salbiy bo'yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo'yoq *irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq* va *irshaymoq*

leksemalarida yana-da ortib boradi. Qiyos qiling: *U hamisha kulib, jilmayib turadigan mehribon chehrani ko'rmadi* (M.Ism.). *SHo'xroq qiz, yigitlar iljayib, bir-biriga ko'z qisib qo'yishadi* ("Mushtum"). *Fosih afandi bo'lsa... qora duldul ustida kuydirgan kalladay irjayib o'tirar edi* (I.Ism.). *Fazliddin t i r j a y i b, egri-bugri tishlarining oqini ko'rsatdi* (O.) *Lekin Murzin hayron qolib: "U emas-ku!" – degan edi, kommendant: "Adashmang, aynan o'zi", - dedi surbetlarcha i sh sh a y i b.* (SH.). *Yer yutgurlar, nima qilib i r sh a y i b turibsizlar, huv, ko'zlaring teshilsin! - dedi xotinlardan biri* (M.Os.).

3. **Nutqiy sinonimlar** – nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan o'zaro farqlanadigan sinonimlar. Masalan, *ozgina, picha, sal, xiyol, jinday, qittay, jichcha* qotiradigan *ozgina* leksemasi nutqning barcha ko'rinishlarida (adabiy nutqda xam, so'zlashuv nutqida ham) qo'llana olgani holda, *picha, xiyol, jinday, qittay, jichcha* leksemalari faqat so'zlashuv nutqiga xoslangandir.

Kontekstual sinonimiya – til birligi sifatida o'zaro sinonim bo'lmagan leksemalarning ma'lum kontekst doirasida (demak, nutq ichida) sinonimik munosabatga kiritilishi. Masalan, **chinni** va **kosa** so'zlarining leksik ma'nolari bir xil emas: **chinni** «idishoyoq, izolyatsion materiallar yasash uchun ishlatiladigan oq loy»ni **kosa** esa «piyoladan kattaroq idish»ni ataydi. Demak, biri «material»ni, ikkinchisi esa shu materialdan yasalgan «idish»ni anglatadi, shunga ko'ra ular sinonim hisoblanmaydi, ammo ayrim shevalarda chinni leksemasi «kosa» ma'nosida ham qo'llanadi, binobarin, shu shevaga xos kontekst ichida u kosa leksemasining sinonimiga aylanadi. Masalan, *Xoljonbika... xitoyi chinnida moy olib keldi* (J.SH.) Kontekst doirasida sinonimlashish hodisasi ayniqsa **muallif** lekseamsining nutqdagi qo'llinishida ko'p uchraydi. Ma'lumki, **muallif** leksemasining sememasi tarkibida "yozuvchi", "shoir", "hikoyanavis", "olim", "ixtirochi" kabi qator semalar mujassamlangan. Demak, uning ma'no ko'lami ancha keng. Kontekst ichida esa muallif sememasining shu semalaridan biri aktuallashadi, qolganlari reallashmaydi. Masalan, roman, hikoya kabi nasriy asarlar haqida gap ketganda **muallif** leksemasi faqat "yozuvchi" ma'nosida qo'llanadi, demak, **yozuvchi** leksemasining kontekstual sinonimiga aylanadi,

kontekstdan tashqarida esa bu ikki soʻz sinonim boʻla olmaydi, chunki ularning maʼno koʻlami oʻzaro teng emas.

Tilda leksik maʼnolari oʻzaro teng boʻlib, farqlovchi semalari boʻlmsagan leksemalar ham uchraydi: *soʻroq* va *savol*, *xabar* va *darak*, *tema* va *mavzu*, *nom* va *ot* kabi. Tilshunoslikda bu tipdagi leksemalar absolyut sinonimlar yoki leksik dubletlar deb ikki xil nomlanmoqda (24,109-b.).

Quyidagi holatlarda leksemalar uzaro sinonim boʻla olmaydi:

1. Turli turkum leksemalari: ot bilan sifat, sifat bilan feʼl va b.lar.
2. Bir turkum leksemalarida keng tushuncha nomlari bilan tor tushuncha nomlari. Bunday holat koʻproq terminologiyaga xosdir. Masalan, botanikada tur va xil terminlarining tushuncha doirasi teng emas: tur termini urugʻdosh boʻlgan bir necha xil va navlarni oʻz ichiga olgan takson tushunchasini ifodalaydi, ayni paytda turlar turkumlarga, turkumlar esa oilalarga birlashadi. Shunga koʻra tur va xil, tur va turkum kabi sinonimik qatorlar boʻlishi mumkin emas.¹
3. Ijtimoiy mohiyati teng boʻlmagan hodisa-voqeliklarning nomlari: *qozi* va *sudya*, *mirshab* va *militsioner* kabilar. Bulardan **qozi** kabi **mirshab** leksemalari feodal tuzumdagi voqelikni, **sudya** va **militsioner** leksemalar esa hozirgi demokratik tuzumga xos voqelikni nomlaydi.

Sinonimik munosabatda boʻlgan soʻzlar oʻzbek tili lugʻat boyligining turli leksik qatlamlariga mansubdir. Masalan, anglamoq (oʻzb.) – tushunmoq (oʻzb.); goʻzal (umumtil) – suluv (dial.); husn (ar.) – chiroy (f-t), xat (ar.), - maktub (ar.) – noma (f-t), kishi (oʻzb.) – odam (ar.); koʻk (oʻzb.) – osmon (t-f.) – falak (ar.); analiz (r-b) – tahlil (ar.), tema (r-b.) – mavzu (ar.) kabi.

¹. Abduazizov A.A. Oʻzbek tili leksikologiyasi va semasiologiyasi. Grammatika. Toshkent, Universitet, 2000.

2.3 Antonimiya va polisemiya

Antonimiya va polisemiya hodisalari o'zaro bog'liqdir: ko'p ma'noli leksema o'zining bosh ma'nosi bilan bitta antonimik juftlikka, hosila ma'nosi bilan esa boshqa antonimik juftlikka kirishi mumkin. Masalan: かいとがらしー *achchiq qalampir* va あまいりんご—*shirin olma* birikmalarida かい—**achchiq** va あまい—**shirin** leksemalari o'zlarining *bosh* ma'nolari orqali antonimik munosabatga kirishgan; *achchiq gap* va *shirin gap* birikmalarida esa *achchiq* va *shirin* leksemalarining hosila (ko'chma) ma'nolari antonimiyaga asos bo'lgan.

Leksik antonimiya leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida guruhlanishidir: *oq* va *qora*, *qalin* va *yupqa* kabi. Antonimiya hodisasi, asosan, bir so'z turkumi leksemalari doirasida yuz beradi. Sifatlarda: a) hajm belgisiga ko'ra: *katta* va *kichik*, *baland* va *past*; b) xarorat belgisiga ko'ra: *issiq* va *sovuq*; v) yosh belgisiga ko'ra: *yosh* va *qari*; g) xarakter-xususiyat belgisiga ko'ra: *saxiy* va *xasis*, *botir* va *qo'rqqoq*, *aqli* va *ahmoq*; d) shakl belgisiga ko'ra: *to'g'ri* va *egri*; ye) maza-ta'm belgisiga ko'ra: *achchiq* va *shirin* kabi. Payt, holat, miqdor, maqsad ma'noli leksemalar doirasida ham antonimiya hodisasi keng tarqalgan: a) *kecha* va *ertaga*, *avval* va *ketin* (payt belgisiga ko'ra), b) *tez* va *sekin*, *arang* va *bemalol* (holat belgisiga ko'ra), v) *ko'p* va *oz*, *mo'l* va *kam* (miqdor belgisiga ko'ra), g) *atayin* va *beixtiyor*, *jo'rttaga* va *bexosdan* (maqsad ma'nosiga ko'ra) va b.lar. Bunday leksemalarning sifat va ravish turkumiga mansubligi keyingi yillarda bir qadar munozarali bo'lib qolmoqda.

Otlarda: a) belgi otlarida: *boylik* va *kambag'allik*, *botirlik* va *qo'rqqoqlik*; b) qaramaqarshi tomon nomlarda: *sharq* va *g'arb*, *janub* va *shimol*; v) fasl nomlarida: *yoz* va *qish*, *kuz* va *bog'r*; g) sutkaning qarama-qarshi tomonlarini ifodalovchi nomlarda: *kecha* va *kunduz*, *tong* va *shom* kabi.

Fe'llarda: a) qarama-qarshi harakat ma'nolarini ifodalovchi fe'llarda: *bormoq* va *kelmoq*, *kirmoq* va *chiqmoq*; b) sifat yoki ravishdan yasalgan fe'llarda: *kegaymoq* va *toraymoq*, *ko'paymoq* va *ozaymoq*, *sekinlashmoq* va *tezlashmoq* kabi.

Ba'zan fe'lning sifatdosh shakli sifat turkumidagi leksema bilan antnimik munosabatlarga kirishishi mumkin: *o'qigan* va *bilimsiz*, *o'qimagan* va *bilimli* kabi. Antonimiya hodisasi sifat turkumida keng tarqalgan, ot va fe'llarda bir oz kamroq uchraydi, olmosh va sonlarda esa bo'lmaydi (ayrim kontekstual holatlar bundan mustasno).

Kontekstual antonimiya o'zaro zid ma'no ifoda etmagan leksemalarning kontekst ichida so'zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritilishi. Buni quyidagi sha'riy misralar tahlilida ko'rish mumkin:

Ushoq **qand** oq **tuzga** monand erur,

Va lekin biri **tuz**, biri **qand** erur.

(A..Navoiy)

Aytur so'zni **ayt**,

Aytmas so'zdan **qayt**!

(A..Navoiy)

Bu misollarda qo'llangan qand va tuz, ayt va qayt so'zlari aslida (tilda) antonimlar emas, ammo birinchi misolning ikkinchi misrada **tuz** va **qand** leksemalari muallifning leksik qo'llanishi natijasida «*achchiq*» va «*shirin*» (demak, «*yaxshi*» va «*yomon*») ma'nolarini, ikkinchi misoldagi **ayt** va **qayt** leksemalari «**ayt**» va «aytma» degan zid ma'nolarni ifoda etib, kontekstual antonimiya hosil qilgan (bunda *to'g'ri* leksemasi otlashgan). Bunday qo'llanish olmoshlarda va sonlarda ham uchraydi: *Bir u deydi, bir bu deydi*, deganda **u** va **bu** olmoshlarida kontekstual zidlanish bor.

Leksik antonimiya ikkita leksema orasida yuz beradi, bu ikki so'z *antonimik juftlikni* hosil qiladi, ammo antonimik juftlik juft so'z degan gap emas. Qiyos qiling: *katta* va *kichik* – antonimik juftlik (undagi har bir so'z-mustaqil leksema), *katta-kichik* – bitta juft so'z, u umumlashgan bitta ma'noga ega. Demak, *katta* va *kichik* zid ma'noli ikkita leksema bo'lganligi uchun ular bir-biriga nisbatan antonimlardir, *katta-kichik* juft so'zi esa antonimlar ishtirokida yasalgan bitta leksemadir, binobarin, bitta leksemaning yolg'iz o'zi antonim hisoblanmaydi. SHuningdek, *bor* va *borma* kabi so'z shakllari ham antonimlar deb qaralmaydi,

chunki antonym bo'lish uchun, yuqorida aytib o'tilganidek, albatta ikkita so'z (leksema) mavjud bo'lishi, bu ikki so'z o'zaro zid ma'no ifodalashi shart, bro va borma esa ikkita leksema emas, balki bitta bor leksemasining (fe'lining) bo'lishli (*bor*) va bo'lishsiz (*borma*) shakllari, xolos. Demak, bunda ham antonimik juftlik yo'q.

Enantiosemiya bitta leksema ma'nosida nutqiy muhit talabiga ko'ra zidlanishning ifodalanishi. Chunonchi, *ko'chaning boshi* birikmasida **bosh** leksemasi ko'chaning «boshlanishi»ni ham, «oxiri»ni ham ifodalanishi mumkin. Bunday holatda ham antonimiya yuzaga kelmaydi.

Tilshunoslikda antonimlarni belgilash mezonlari bo'yicha munozarali qarashlar ham bor. Xususan, ayrim manbalarda opa va singil, aka va uka¹ tog'a va xola kabi so'zlar antonimlar deb bog'lanadi. Shu soha bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. B.Isabekov esa ularni antonimlar emas, ifrelyativ so'zlar deb bog'laydi, buni yuqoridagi leksemalarning ma'nolari qarama-qarshi emas, balki bir-biriga juda yaqindir deb asoslaydi. Fe'ning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari (*bordi* va *bormadi*, *boray* va *bormay*, *ko'rgan* va *ko'rmagan* kabi formalari) ayrim adabiyotlarda «antonimlarning alohida bir tipi...» deb qaraladi, biroq tilshunos SH.Rahmatullayev bu fikrga qo'shilmaydi. Uningcha, «Oddiy inkorning o'zi hali antonim emas. Masalan, ayt-aytma, aytar-aytmas kabilar biri ikkinchisining inkori. Ammo ularni o'zaro antonimlar deb bo'lmaydi. Asli bo'lar ikki leksema emas, balki ayni bir leksemaning ikki (bo'lishli va bo'lishsiz) shaklidir. Antonimiya esa ikki leksema orasidagi ma'no munosabatidir...» (24,122-b.). Antonimiyani ayni shunday tushunish ayrim ilmiy manbalarda ham bor.

Bu printsipga ko'ra ikkita ma'no o'rtasidagi oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) aniqlanadi va shu markazning ikki tomonidan o'rin olgan tushunchalar o'zaro antonimik munosabatlarda deb qaraladi. Maslan, *kuz* bilan *bog'r* orasida *qish* bor, demak, *kuz* va *bog'r* leksemalari o'zaro antonimlar deb qaraladi, ammo *kuz* bilan *qish* – antonim leksemalar emas, chunki bu ikki leksema orasida oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) yo'q; shuningdek, *qish* bilan *bog'r* antonim emas (oraliq tushuncha yo'q), *qish* bilan *yoz* – antonimlar (oraliq tushuncha – «*bog'r*»);

kecha bilan *bugun* – antonimlar emas (oraliq tushuncha yo'q), *kecha* va *ertaga* – antonimlar (oraliq tushuncha – «bugun»); *o'tmish* va *hozir* antonimlar emas (oraliq tushuncha yo'q), *o'tmish* va *kelajak* – antonimlar (oraliq tushuncha «hozir») kabi. Ba'zan mantiqiy markazning ikki tomonida bir nechtdan antonimik juftliklar bo'ladi: a'lo (juda yaxshi)–yaxshi-o'rta(M)- yomon-juda yomon kabi.

Antonimik munosabatda bo'lgan ayrim leksemalar orasida mantiqiy markaz bo'ladi-yu, ammo uni nomlovchi so'zning o'zi bo'lmaydi. Masalan, kulgi va yig'i leksemalari orasidagi mantiqiy markazni bildiruvchi maxsus so'z tilda yo'q, ammo oraliq hodisaning o'zi bor: u kishining kulmasdan, yig'lamasdan turgan normal holatidir, demak, ana shu holat (ekstralingvistik omil) mantiqiy markaz sifatida tasavvur qilinadi.

Leksik antonimlar muhim uslubiy vositalardir. Ular matnda qarshilantirish (antiteza) vositasi rolini bajaradi, shu borqali hodisa va holatlardagi qarama-qarshiliklarni, ayrim obraz va personatlarning ichki dunyosidagi ziddiyatlarning badiiy talqinini ta'minlaydi.

Ilmli odamga ulug'lik hamdam,

Ilmsiz qozini eshak deb aytma,

Chunki bu eshakka tuhmatdir beshak.

(H.Deh.).

Jahonning shodligi yig'ilsa butun,

Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun.

To'lur g'am-g'ussaga dilning kosasi,

Qadrdon do'stlardan judo bo'lgan kun.

(Rud.)

Antonimlar maqol va matal janrlarida ham muhim uslubiy vosita sanaladi – hayotiy tajriba umumlashmalarini maqol va matallar tiliga xos uslubda ta'sirchan ifodalash imkonini yaratadi:

Yozgi mehnat - **qishki** rohat.

Mehnatdan **do'st** ortar, g'iybatdan – **dushman**.

Do'st achitib gapirar, **dushman** – kuldirib.

Antonimiya hodisasi frazemalar va morfemalar doirasida, shuningdek leksema va frazemalar munosabatida ham uchraydi.

XULOSA

Yapon tilshunosligining muhim vazifasi, ya'ni til haqidagi bilimlardan kelib chiqqan holda til birliklarini ularning o'zaro sintaktik, semantik, shakl - mazmun va boshqa munosabatlarida bo'ladigan o'zgarishlarni hisobga olib aniq belgilashdan va ularning nutqda qo'llanilish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat bo'lishi lozim.

Yapon tilining asosiy vazifasi til birliklari imkoniyatlarining nutqda namoyon bo'lish qonuniyatlarining, davrga, nutq ko'rinishlariga nisbatan me'yoriyligini belgilab berishdan iboratdir. Tilshunoslikka oid tadqiqotlarning hammasi ana shu vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'lishi shart. Bu narsa tilshunoslikning boshqa sohalar bilan kelib chiqadigan boshqa vazifalarni, albatta inkor etmaydi.

Yapon tilida bitilgan matnlarni o'qiy olish, ko'p yozuvlarda yoza bilish, ko'p tilni bilish, bu tillarda gaplasha olish insonlarning eng yaxshi fazilatlaridan biridir. Insonlarning komillik darajasi, avvalo uning nutqida o'z ifodasini topadi.

Tilni qadrlamagan odam o'zini ham, xalqini ham, vaqtini ham qadrlamaydi. Shu nuqtai nazardan biz har bir matnga oqilona yondashib, tahlil tartibiga e'tibor bermog'imiz lozim. Matn faqat yozma ko'rinishga xos, nutqning esa og'zaki va yozma ko'rinishlari mavjud. Biz mavzumizdagi ierogliflarga har bir matnda, gapda yoki og'zaki nutqimizdan misollar keltirishimiz mumkin.¹

Yapon tilida o'quvchining tafakkurini kengaytirishga, so'z boyligini oshirishga xizmat qiladigan tilshunoslik bo'limlaridan biri semasiologiyadir.

Biz yapon tili o'quv darsliklarida qo'llanilgan so'z birikmalar haqida

¹ Bushuy T.A, Safarov Sh.S. Til qurilishi: Tahlil metodlari va metodologiyasi. Toshkent, Fan, 2007

mulohaza yuritar ekanmiz, so'zlarning shakl ko'rinishlarining qo'llanilishi emas, balki ularning qanday ifodalangani va uning o'quvchiga qanday eslab qolishi tushuniladi. Bunda biz bitiruv ishidan maqsadimiz yapon tilining tilshunoslik sohasida erishilgan samarali yutuqlar, leksemalarning semantik xususiyatlari, gapda ularning tutgan o'rni va nutqda qo'llanilishiga misollar orqali tahlil qilishga harakat qildik.

Semasiologiyaning bir turi bo'lgan polisemiyaning xususiyatlarini o'rganish bilan birga uning gapda va nutqda mohirona qo'llanilishini ko'rdik. Ayniqsa, polisemiya ko'pgina misollar keltirdik va bu kuzatishlar natijasida qo'yidagi xulosaga keldik:

Birinchidan, polisemantik ma'no nihoyatda murakkab va keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, u o'quvchi oldidagi g'oyaviy-badiiy xususiyatlar birligi, uning dunyo qarashini ifodalovchi tafakkur mevasidir. Uning bir ko'rinishi leksikologiyaga murojaat qildik va uning semantik qirralarini uslubiy qo'llanmalarda nashr etilgan misollar orqali o'rganib chiqdik. Yapon tilida leksemalar so'zga teng bo'lib, umumlingvistik muammo sifatida umumiy so'z nazariyasi doirasida ham o'rganiladi. Leksik birlik doirasiga nafaqat alohida so'z, balki so'zga teng barqaror birlik, murakkab, tarkibli so'z ham kiritiladi. Lekin sema asosiy lug'aviy birlik hisoblanilishini anglab yetdik.

Ikkinchidan, yapon tilining taraqqiyoti, kelib chiqish bosqichlari haqida batafsil to'xtaldik va yaratilgan tarixiy adabiyotlardan ma'lumotlar keltirdik. Yapon yozuvining sanskript yozuvidan tashkil topganligi bilan tanish ekanligi fonetik yozuvni yaratish imkoniyatini berdi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tez yozuv shaklidagi ierogliflar guruhini tashqi ko'rinishi yetarli darajada qisqartirilib sillabik funksiyani bajarishni ta'minladilar. Bu guruh belgilarni hiragana deb atadilar.

Yapon tili tarixining asoschisi bo'lgan faylasuf, shoir, rassom va iqtidorli kalligraf sifatida tanilgan Kukaya, Manyoshu asarlaridan foydalanib, semasiologiyaga kengroq ta'rif berildi. Tilning kelib chiqishi va taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan, uning madaniyatining yuqori saviyaga ko'tarilishi,

shuningdek, siyosiy-huquqiy, estetik va shu kabi fikrlarni qayd qilish hamda keyingi davrga qoldirishga bo'lgan ehtiyojning o'sishi bilan bog'liq. Demak, til jamiyatning eng buyuk madaniy kashfiyotidan biri bo'lib, kishilik jamiyatining har tomonlama taraqqiyotida juda katta roli va o'ziga xos ahamiyati borligini tushunib yetdik.

Uchinchidan, leksik ma'no leksemaning nimanidir nomlashi (atashi), anglatishi va ifodalashidir. U quyidagi uch hodisa o'rtasidagi bog'lanishdan tarkib topadi:

- a) fonetik so'z (leksemaning fonetik qobig'i, shakli);
- b) fonetik so'z tomonidan nomlangan predmet, hodisa, tushuncha (denotat, referent);
- v) fonetik so'z tomonidan ifodalangan ma'no (signifikat, u inson ongida denotot haqida shakllangan ma'nodir).

So'zning o'z shakli va ma'nosi bo'ladi. So'z uchun ma'no birlamchidir. Ma'no ongda paydo bo'lgach, ifodalash zaruriyati bilan shakl tanlanadi. Leksema nutq tovushlari majmuidan iboratdir. Hech vaqt avval nutq tovushlari majmui tanlab, so'ng ma'no izlanmaydi. Ayrim hollarda ma'no kishilik ongida paydo bo'lgani holda, ifodalash zaruriyati bo'lmagani uchun, unga shakl tanlanmagan va u so'z holida shakllanmagan holatlar ham kuzatildi.

To'rtinchidan, barcha boblar haqidagi fikr-mulohazalar bakalavr ishi yakunida xulosalandi va polisemantik ma'noga tegishli barcha foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat qilindi.

Men yapon tili semasiologiyasining bir bo'limi bo'lmish polisemiyaning xususiyatlarini o'rganish chog'ida shunga amin bo'ldimki, bir so'zning bir necha ma'no ifodalashi yapon tili naqadar ko'pqirrali, murakkab va qiziqarli til ekanligidan dalolat beradi. Yaponlar leksemalardan matn va gapda mohirona foydalanganligi va yangi leksik-semantik birliklarni yaratganligi ko'rinib turibdi. Yapon kalligraflari yapon yozuvi taraqqiyotiga qo'shgan hissalarining ularning barcha asarlariga ko'chgan va hozirgi kunga qadar yapon tili ixlosmandlari tomonidan o'rganilib kelinmoqda.

Yapon yozuvchi va faylasuflarining saboqlari yoshlarga o'g'itlari bugungi yapon tili va adabiyotining parvozida jamol ko'rsatmoqdaki, buni quvonch bilan qayd etish mumkin. Ayniqsa, darslik va boshqa o'quv qo'llanmalarida yapon yozuvning asosiy figuralaridan biri ieroglif va uning turli ko'rinishlariga misollar talaygina.

Yapon tiliga mehr-muhabbat bugungi O'zbekiston yoshlarining va muxlislarining kundalik hayotining mazmuniga aylangan. Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng chet tillariga bo'lgan e'tibor yanada rivojlandi. Hozirda yoshlarimiz turli tillarda ilmiy izlanishlar olib borib, tilshunoslik ravnaqiga o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda. Shu jumladan bizning dargohimizda ham xorijiy tillarga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib, talaba yoshlarimiz bu sohada ko'plab yangiliklar va izlanishlar qilishmoqda.

Xulosa so'ngida shuni aytishim lozimki, Oliy ta'lim dargohida qimmatli bilimni ayamay menga bilim bergan ustozlarimga va bitiruv malakaviy ishimni yaratish mobaynida o'z maslahatlarini ayamagan ilmiy rahbarimga o'zimning samimiy minnatdorchiligimni bildiraman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 「日本語総まとめ問題集 1 級「語異論」」アスク出版、日本—
2 0 0 6 年
2. 課の千恵子、清水ゆり「Basic Kanji Book」漢字 5 0 0 Vol.2、凡人者、
東京—2 0 0 1 年
3. 竹中弘子、平方由紀子「Intermediate Kanji Book」漢字 1 0 0 0 plus Vol.1、
凡人者、日本—2 0 0 4 年
4. 竹中弘子、平方由紀子「Intermediate Kanji Book」漢字 1 0 0 0 plus Vol.2、
凡人者、日本—2 0 0 4 年
5. 松本騎虎「日本語総まとめ問題集 2 級「語異論」」アスク出版、日本—
2 0 0 6 年
6. かのちえこ、しみずゆり「Basic Kanji Book」漢字 5 0 0 Vol.1、凡人
者、東京—2 0 0 1 年
7. 小松洛 ウズベク—日本語漢字辞典、東京—2 0 0 6 年
8. 幹夫河原崎「日本語かな入門英語版」国際交流基金日本語国際センタ浦
和、日本—2 0 0 7 年
9. 日本語かな入門英語版、国際交流基金日本語国際センター、うらわ、
日本—2 0 0 7 年
10. 「ニューアプローチ中級日本語」Vol. 1 ,語文研究者、日本—2008 年
11. 「ニューアプローチ中上級日本語」Vol. 2 ,語文研究者、日本—2008 年
12. 金田山下「日本語大和辞典」、学研、日本—2 0 0 8 年
13. 和露辞典、講談社、日本—2 0 0 9 年
14. 郁子乙津か「この漢字を英語で言えますか？」Vol.1, 講談社パワーイ
ングリッシュ、日本—2 0 0 9 年

15. 郁子乙津か「この漢字を英語で言えますか？」 Vol.2, 講談社パワーイングリッシュ、日本—2009年
16. 郁子乙津か「この漢字を英語で言えますか？」 Vol.3, 講談社パワーイングリッシュ、日本—2009年
17. 郁子乙津か「この漢字を英語で言えますか？」 Vol.4, 講談社パワーイングリッシュ、日本—2009年
18. 郁子乙津か「この漢字を英語で言えますか？」 Vol.5, 講談社パワーイングリッシュ、日本—2009年
19. 平井悦子、三輪幸子「日本語の歴史」、東京—2010年
20. 小口靖男「中アジアの歴史」、東京—2011年
21. Clark J., Yellop. C. An introduction to lexicology and semasiology. Third edition. Blackwell publishing, 2007.
22. Crystal David. A dictionary of Linguistics and lexicology. Fifth edition. Blackwell publishing, 2003.
23. Croft. W. Typology and universals. Second edition. Third printing. Cambridge University Press, 2006.
24. Radford A. Lexicology. Japanese minimalist introduction. Cambridge University Press, 2002.
25. Abduazizov A.A. O'zbek tili leksikologiyasi va semasiologiyasi. Grammatika. Toshkent, Universitet, 2000.
26. Abduazizov A.A. Tilshunoslikka kirish asoslari. 1 qism. Toshkent, Universitet, 2002.
27. Bushuy T.A, Safarov Sh.S. Til qurilishi: Tahlil metodlari va metodologiyasi. Toshkent, Fan, 2007
28. Safarov Sh.S Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, Sangzor, 2006.
29. Sherov S.A. Yapon tili yozuvi. Grammatika. Toshkent, 2003.
30. Sherov S. Yapon tili tarixi va madaniyati. Toshkent-2005.
31. [www. google.co.jp](http://www.google.co.jp)